Geografik topshiriqlar turli shakllarda bo'lib, ular orasida xarita bilan ishlash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatish, muammoli vaziyatlarni aniqlash va yechish, shuningdek, loyiha asosida ishlash kabi ko'plab amaliy usullar mavjud. Ushbu turli xil topshiriqlar o'quvchilarda nafaqat geografik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ularni tizimli fikrlash, mas'uliyatni his qilish, vaqtni samarali boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalari bilan ham boyitadi. Ta'lim jarayonida geografik topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning fan va atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda nafaqat qog'ozda yozilgan bilimlar emas, balki real dunyo hodisalarini anglash va ularni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada, o'quvchilar o'z fikrini mantiqiy asoslab, xulosalar chiqarish va amaliy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularni kelajakda murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida geografik topshiriqlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarda faqatgina fan doirasida emas, balki ularning kundalik hayotida va kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Masalan, analitik fikrlash, muammolarni tizimli ko'rib chiqish, vaqt va resurslarni boshqarish, hamda ijodiy yondashuv orqali yangi g'oyalar ishlab chiqish kabi ko'nikmalar bu jarayonda rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarni jamiyatning faol, ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va tanqidiy fikrlaydigan a'zolariga aylantiradi.

Geografik topshiriqlarning o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati mavzusidagi ushbu maqolaning asosiy mazmunidan kelib chiqib quyidagu **takliflarni** keltirib o'tmoqchiman:

- maktab geografiya o‘qituvchilari uchun sinf va mavzular kesimida amaliy topshiriqlar to‘plami ishlab chiqilishi zarur.
- har bir mavzuga mos ravishda xarita asosida savollar va mashqlar kiritilishi lozim.
- rasmiy statistik ma’lumotlarga asoslangan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlantirilishi kerak.
- o‘quvchilarni ekologik, ijtimoiy-geografik va iqtisodiy mavzularda mustaqil loyiha ishlarini bajarishga jalb etish.
- interaktiv xaritalar, raqamli atlantar, Google Earth kabi vositalar asosida topshiriqlar tuzish.
- amaliy topshiriqlarni samarali tuzish va qo‘llash bo‘yicha muntazam seminar va treninglar o‘tkazish.
- geografiya bilan bog‘liq matematika, tarix, biologiya kabi fanlar bilan integratsiyalashgan topshiriqlarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020)
2. Geografiya fanining davlat ta’lim standarti. – T.: 2021.
3. Tursunov A. “Geografiya ta’limida interfaol usullar”. – T.: O‘qituvchi, 2020.
4. Rasulova N. “Geografiyada amaliy mashg‘ulotlar”. – Samarqand: 2021.
5. Karimov S. “Zamonaviy geografik ta’limda topshiriqlardan foydalanish usullari”
// Geografiya va tabiiy fanlar, 2022, №4.

OCHIQ YUZLI, GO‘ZAL XULQLI BO‘LISH – MO‘MINLIK ALOMATI VA MUNOFIQLIKKA ZID FAZILAT

Turg'unboyev Anvarjon Adhamjon o'g'li

Mir Arab o'rta maxsus islom ta'lim maussasasi mudarrisi

Annotatsiya

Ushbu maqola jamiyat uchun muhim bo'lgan ochiq yuzli bo'lish, go'zal xulqni tarbiyalash haqida bo'lib, uning ijtimoiy omillarini o'rganadi. Insonni o'rab turgan muhitda go'zal xulq bilan muomala qilishning ijobiy o'rni hadislar va hayotiy voqealar bilan sharhlanadi.

Kalit so'zlar

Islom axloqi, inson, go'zal xulq, jamiyat, fazilat, taraqqiyot, mo'minning alomati, ne'mat, husni xulq, munofiqlarning alomati.

Islom axloqi inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan mukammal axloqiy tizimdir. Alloh taolo Qur'oni karimda mo'minlarni bir-birlariga mehribon, yumshoq muomala qiluvchi, ochiq yuzli va go'zal xulqli bo'lishga targ'ib etgan. Rasululloh ﷺ: "Mo'minning iymoni husni xulqi bilan mukammal bo'ladi", deganlar. Bu hadis go'zal axloq mo'minlikning ajralmas qismi ekanini anglatadi. Go'zal xulq – bu insonning o'zini va boshqalarni hurmat qilish, mehr-oqibatli bo'lish, kibr va hasaddan yiroq turish, so'zida sobit bo'lish va halollikda davom etishdir. Ochiq yuzlilik esa inson qalbining pokligi va iymonining yorqin belgisi hisoblanadi. Rasululloh ﷺ: "Birodaring yuziga tabassum qilishing sadaqadir", deganlar. Demak, ochiq yuzli bo'lish nafaqat ijtimoiy odob, balki ibodat darajasidagi fazilatdir. Bunga zid holat – bu qattiqqo'llik, jahldorlik, baxillik, kibr, va yolg'onchilikdir. Bu illatlar munofiqlik sifatlaridan hisoblanadi. Rasululloh ﷺ dedilar: "Munofiqlarning belgisi uchtadir: gapirsa yolg'on gapiradi, va'da bersa ustidan chiqmaydi, omonat topshirilsa xiyonat qiladi." (Imom Buxoriy, Muslim). Demak, mo'min kishining go'zal axloq va ochiq yuzlilik bilan ziynatlanishi uning iymon darajasining belgisi, munofiqlik esa axloqiy tubanlik alomatidir. Go'zal xulq va ochiq yuzlilik jamiyatda mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Har bir musulmon o'zini go'zal axloq bilan tarbiyalasa, bu jamiyatning ma'naviy ravnaqi va barqarorligiga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir mo'min Rasululloh ﷺning xulqlari bilan ziynatlanishga intilishi lozim.

Xulosa

Ochiq yuzli va go'zal xulqli bo'lish – mo'minlikning eng yuksak alomatidir. Bu fazilat insonni Alloh taolaga yaqinlashtiradi, odamlar orasida izzat-ehtiromlar keltiradi va

jamiyatda totuvlikni ta'minlaydi. Munofiqlik esa buning aksi bo'lib, insonni ma'naviy inqirozga olib boradi. Demak, go'zal axloq – iymonning ziynati, ochiq yuzlilik esa musulmonlikning go'zalligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim.
2. "Hadis va hayot". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
3. "Odoblar xazinasi". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
4. "Ruhiy tarbiya". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
5. Imom Buxoriy, "Al-Jomi' as-Sahih".
6. Imom Muslim, "Sahih Muslim".

SMART CONTRACT DEVELOPMENT METHODS AND ANALYSIS OF UNDERLYING ALGORITHMS

Razzakov Sherbek Tog'aymurod ugli
Normurodov Chori Begaliyevich.
Termez State University

Abstract:

Smart contracts are self-executing agreements deployed on blockchain platforms. Their correct development and the choice of underlying algorithms play a crucial role in ensuring trust, efficiency, and security in decentralized systems. This thesis explores different methods for creating smart contracts and analyzes the algorithms used in various stages, such as consensus mechanisms, cryptographic functions, and execution models. Comparative analysis is performed on the basis of performance, scalability, and vulnerability resistance. The study provides insights for developers and researchers working on secure and efficient smart contract systems.

Keywords

Encryption, symmetric algorithm, data security, cryptanalysis, evaluation criteria, framework,

1. Introduction

With the emergence of blockchain technology, smart contracts have become a foundational element of decentralized applications (dApps). A smart contract is a program stored on a blockchain that automatically executes when certain conditions are met. Ethereum popularized this concept, but many other platforms like Solana, Polkadot, and Binance Smart Chain now support smart contract functionality.

The development of smart contracts requires not only proper programming but also an understanding of the algorithms and mechanisms behind their execution. This thesis focuses on:

- Common development methods for smart contracts.
- Key algorithms used in smart contract operation.
- Security and performance analysis of these algorithms.

2. Methods of Smart Contract Development

There are various approaches to building smart contracts, depending on the blockchain platform and desired functionality. The main methods include:

2.1. Using High-Level Languages

- **Solidity** (for Ethereum-based chains)

- **Rust** (for Solana)
- **Vyper** (for Ethereum, with a focus on security)

2.2. Visual Programming Tools

- Tools like **Remix IDE**, **Chainlink Starter Kit**, and **OpenZeppelin Wizard** enable low-code or no-code creation of smart contracts.

2.3. Framework-Based Development

- Using development frameworks like:
 - **Truffle**
 - **Hardhat**
 - **Brownie**

These frameworks provide testing, deployment, and debugging environment

3. Algorithms Used in Smart Contracts

Smart contracts rely on several algorithmic components, including:

3.1. Consensus Algorithms

These algorithms ensure agreement on the state of the blockchain:

- **Proof of Work (PoW)** – Used in Ethereum before the Merge.
- **Proof of Stake (PoS)** – Used in Ethereum 2.0 and others.
- **Delegated Proof of Stake (DPoS)** – Used in EOS, TRON.

3.2. Cryptographic Algorithms

These provide data integrity and identity verification:

- **SHA-256** – For hashing (Bitcoin).
- **Keccak-256** – For hashing (Ethereum).
- **ECDSA (Elliptic Curve Digital Signature Algorithm)** – For signing transactions.

3.3. Execution and Gas Algorithms

- **EVM (Ethereum Virtual Machine)** execution model.
- **WASM (WebAssembly)** – Used in Polkadot and EOS for contract execution.
- **Gas Calculation Algorithm** – Determines the cost of executing a contract.

4. Analysis and Comparison

Feature	Solidity (EVM)	Rust (Solana)	Vyper (Ethereum)
Language Complexity	Moderate	High	Low
Performance	Moderate	High	Low
Security Focus	Medium	Medium	High
Tooling Support	Strong	Growing	Limited
Execution Model	EVM	BPF/WASM	EVM

Algorithmic Analysis:

- **Consensus Algorithms:** PoS offers better scalability than PoW but can introduce new attack vectors (e.g., long-range attacks).
- **Cryptographic Algorithms:** ECDSA is widely used but quantum-vulnerable; future-proof alternatives like EdDSA or post-quantum algorithms are being considered.
- **Gas Algorithms:** Smart contracts must be optimized to reduce gas costs. Loops and heavy storage operations are particularly expensive.

5. Conclusion

The development of smart contracts requires an in-depth understanding of both programming paradigms and underlying algorithms. While tools and languages simplify the development process, security and efficiency depend heavily on algorithmic design. As blockchain platforms evolve, new languages and execution environments are emerging, requiring developers to adapt to changing technologies. The choice of algorithm, whether for consensus, cryptography, or execution, directly influences the performance, scalability, and trustworthiness of smart contract systems. Future research should focus on quantum-resistant cryptographic algorithms, gas optimization strategies, and formal verification tools to enhance the robustness of smart contracts.

References

1. Wood, G. (2014). *Ethereum: A Secure Decentralised Generalised Transaction Ledger*. Ethereum Project Yellow Paper.
2. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System*.
3. Buterin, V. (2015). *A Next-Generation Smart Contract and Decentralized Application Platform*.
4. Szabo, N. (1997). *The Idea of Smart Contracts*.
5. OpenZeppelin Documentation. (2023). Retrieved from <https://docs.openzeppelin.com>
6. Solidity Language Docs. (2023). Retrieved from <https://docs.soliditylang.org>
7. Solana Developer Docs. (2023). <https://docs.solana.com>

IXTIONIMLARNING AFFIKSATSIYA USULI BILAN YASALISHI

Allaquliyeva Qunduz Bahodir qizi
Olmazor tumani 224 maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi baliq nomlarining yasash tizimi, xususan affiksatsiya usuli orqali shakllanish jarayoni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tabiat hodisalari, yashash muhiti va inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan baliq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari, etimologiyasi hamda ularning so'z yasash modellari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan baliq nomlarining morfemik tarkibi, affikslarning ma'no o'zgarishiga ta'siri, ularning o'zbek tilidagi va turkiy tillar tizimidagi o'rni izchil tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida o'zbek tilidagi ko'plab baliq nomlari affikslar yordamida semantik kengayish asosida shakllangani aniqlangan.

Kalit so'zlar:

baliq nomlari, affiksatsiya, so'z yasalishi, leksik-semantik tahlil, etimologiya, morfemik tahlil

Kirish

O'zbek tilining leksik qatlamida jonivorlar nomlari, xususan, baliq nomlari alohida semantik guruhni tashkil etadi. Ular xalqning hayot tarzi, ovchilik va baliqchilik faoliyati, tabiatni kuzatish madaniyati hamda tarixiy-etnolingvistik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Tilshunoslikda jonivorlar nomlarining shakllanish mexanizmlarini o'rganish xalq tafakkuri va madaniy dunyoqarashini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Baliq nomlari, ayniqsa, affiksatsiya usuli orqali hosil bo'lgan birliklar, o'zbek tilining so'z yasash tizimini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Chunki affiksatsiya — yangi so'zlarni yasashning eng faol va unumli usullaridan biridir. U orqali nafaqat yangi leksik birliklar paydo bo'ladi, balki mavjud so'zlarga ma'no nozikliklari ham qo'shiladi.

Mazkur tadqiqotda baliq nomlariga nom berish jarayonining tabiiy, semantik va morfologik asoslari tahlil qilinib, ularning affiksatsiya orqali yasash xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Tadqiqot uslubi va natijalar

Tadqiqot deskriptiv va morfemik tahlil metodlariga asoslangan bo‘lib, asosiy manba sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda xalq og‘zaki ijodida uchraydigan baliq nomlari material sifatida olindi.

1. Baliq nomlariga nom berilish jarayoni

O‘zbek tilida baliq nomlari ko‘pincha quyidagi asoslarda shakllangan:

Tashqi belgiga qarab: masalan, oqbalıq, qizilbalıq, cho‘rtan, kaptarbalıq.

Harakat yoki xulq-atvor asosida: chayqabalıq (tez harakat qiluvchi), tutqıchbalıq (ovchıga oson tutiluvchi).

Yashash muhiti yoki suv turi asosida: ko‘lbalıq, daryobalıq, suvbalıq.

Odam faoliyati bilan bog‘liq nomlar: qarmoqbalıq, ovbalıq.

Bu nomlar orasida bir qismi to‘liq so‘z birikmasi shaklida, bir qismi esa affiksatsiya usuli orqali hosil bo‘lgan. Masalan, baliqchi, baliqcha, baliqqina, baliqsimon, baliqzor kabi so‘zlarda affikslar orqali yangi ma’no hosil qilingan.

2. Affiksatsiya orqali yasalish xususiyatlari

Affiksatsiya o‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida amalga oshadi.

Baliq nomlari orasida quyidagi morfemik modellarga ega birliklar mavjud:

Model	Misol	Ma’nosi
-chi	baliqchi	baliq ovlovchi shaxs
-cha	baliqcha	kichik baliq, yosh baliq
-simon	baliqsimon	baliqqa o‘xshash jonivor
-zor	baliqzor	baliqlar ko‘p yashaydigan joy
-gacha / -qina	baliqqina	kichraytirish, erkalatish ma’nosi
-lik	baliqlik suv	baliqqa boy joy

Affikslarning barchasi semantik jihatdan nomning ma’nosini toraytiradi, kengaytiradi yoki boshqa semantik soha bilan bog‘laydi. Masalan, baliqchi so‘zi -chi qo‘shimchasi orqali yangi leksik birlik sifatida, “kasb egalari” semasiga ko‘chadi.

3. Qiyosiy jihatlar

Turkiy tillarning ko‘pchiligida baliq nomlarining affiksatsiya usuli o‘xshash tarzda shakllangan. Masalan:

Turk tilida balıqçı (baliqchi), balıqçık (kichik baliq),

Qozoq tilida balyqshy, balyqsha kabi birliklar mavjud.

Bu esa affiksatsiya jarayonining turkiy tillar uchun umumiy tipologik xususiyat ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama

Affiksatsiya orqali yasalgan baliq nomlari o‘zbek tilida bir nechta lingvistik funksiyani bajaradi:

Nom berish funksiyasi — mavjud obyektga (baliq turi yoki baliq bilan bog‘liq shaxs/joyga) aniq nom berish;

Ma‘no noziligini yaratish — kichraytirish, erkalatish yoki o‘xshatish ma‘nolarini ifodalash;

Leksik differensiasiya — bir turdagi baliqlarni bir-biridan farqlash imkonini yaratish.

Til tizimida affiksatsiya usuli orqali hosil bo‘lgan baliq nomlari semantik jihatdan juda boydir. Ular orqali xalqning tabiatni idrok etish uslubi, hayot tarzi va madaniy qarashlari aks etadi. Misol uchun, baliqzor so‘zida nafaqat “baliq yashaydigan joy” ma‘nosi, balki “serhosil, to‘kin joy” obrazli ma‘nosi ham mujassam.

Bundan tashqari, ayrim baliq nomlari xalq orasida metaforik ma‘noda ishlatiladi (baliqdek jim, baliq kabi suzmoq va h.k.), bu esa tilning obrazlilik darajasini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbek tilida baliq nomlarining shakllanishida affiksatsiya usuli eng faol mexanizmlardan biridir.

-chi, -cha, -simon, -zor, -lik qo‘shimchalari baliq nomlarining asosiy yasalish modellari hisoblanadi.

Nom berilish jarayoni xalqning tabiat bilan munosabati, estetik idroki va kasbiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Baliq nomlari o‘zbek tili leksikasining madaniy-semantik boyligini namoyon etuvchi muhim qatlamdir. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, turkiy

tillarda affiksatsiya asosidagi yasalish jarayoni umumiy genealogik xususiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili. So‘z yasalishi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Jo‘raev A. Til va xalq madaniyati: etnolingvistik izlanishlar. — Toshkent: Fan, 2010.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. — Toshkent: Fan, 2012.
5. Türk Dil Kurumu. Türkçe Sözlük. — Ankara, 2011.
6. Abduazizov A. Til tizimida affiksatsiya jarayoni va uning semantik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2019.

Tashvish (anksiyete) holati va uni kamaytirish usullari.

Amirova Nodira Shamshiyevna

Alfraganus Universiteti Psihologiya PS-23-1 guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson ruhiyatida uchraydigan **tashvish (anksiyete)** holatining sabablari, uning organizmga ko'rsatadigan ta'siri hamda uni kamaytirishning samarali usullari yoritilgan. Tashvish holati insonning **ruhiy holati, emotsional barqarorligi** va **stress** darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada **psixologik bosim**, ijtimoiy omillar va shaxsning ichki kechinmalari natijasida paydo bo'ladigan anksiyetening shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, **tinchlanish usullari, meditatsiya, ijobiy fikrlash** va **psixoprofilaktika** kabi yondashuvlar yordamida tashvish holatini kamaytirish yo'llari haqida ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tashvish, anksiyete, stress, ruhiy holat, emotsional barqarorlik, psixologik bosim, tinchlanish usullari, meditatsiya, ijobiy fikrlash, psixoprofilaktika.

Kirish: Inson hayoti davomida turli vaziyatlarda tashvish yoki **anksiyete** holatini boshdan kechiradi. Bu holat odatda noma'lumlik, xavotir yoki stress bilan bog'liq bo'lib, insonning ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tashvish — bu tabiiy emotsional holat bo'lsa-da, uning ortiqcha darajada kuchayishi insonning kundalik faoliyatini, ijtimoiy munosabatlarini va umumiy **ruhiy holatini** izdan chiqarishi mumkin. Zamonaviy hayot sur'atining tezlashuvi, raqobatning kuchayishi va axborot oqimining ko'pligi insonlarda **psixologik bosimni** oshirmoqda. Ayniqsa yoshlar va faol ishchi qatlam vakillari orasida **stress** va **anksiyete** darajasining ortishi ko'plab psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, bugungi kunda tashvish holatini o'rganish va uni kamaytirishning samarali yo'llarini topish muhim ilmiy va amaliy masalaga aylanmoqda. Ushbu maqolada **emotsional barqarorlik, tinchlanish usullari, meditatsiya, ijobiy fikrlash** hamda **psixoprofilaktika** vositalari orqali tashvish holatini kamaytirishning ilmiy asoslari va amaliy jihatlari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar Tashvish holatini o'rganish psixologiya fanida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar insondagi **anksiyete** holatining sabablari, kechish mexanizmlari hamda uni kamaytirish usullari haqida tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, S. Abdullayeva (2020) o'z tadqiqotlarida tashvish holatining **ruhiy holat** va **stress** darajasi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tashvishning kuchayishi insonning fikrlash qobiliyati, diqqat

markazlashuvi va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. R. Alimov (2021) esa **psixologik bosim** va tashvish o'rtasidagi munosabatni o'rganib, ijtimoiy omillar — ya'ni oila, ish muhiti, atrofdagilarning munosabati kabi sabablar inson ruhiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Shu bilan birga, zamonaviy psixologiyada **tinchlanish usullari, meditatsiya** va **ijobiy fikrlash** orqali tashvishni kamaytirish samarali deb topilgan. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy maqolalar, psixologik adabiyotlar hamda internet manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda **tahliliy-metodik yondashuv**dan foydalanildi. Ya'ni mavjud nazariy manbalar asosida **psixoprofilaktika** va **emotsional barqarorlikni** mustahkamlovchi usullar o'rganilib, ular real hayotdagi amaliy misollar bilan tahlil qilindi.

Muhokama: Tashvish holati har bir inson hayotida uchraydigan tabiiy psixologik jarayon bo'lsa-da, uning davomiy va kuchli shakli insonning **ruhiy holatiga** salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda odam tez charchaydi, diqqatini jamlay olmaydi, ijtimoiy muloqotdan chekinishga moyil bo'ladi. Shuningdek, kuchli **anksiyete** insonda **stress** darajasini oshiradi, bu esa sog'liq bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashvish holatini kamaytirish uchun bir nechta samarali yondashuvlar mavjud. Avvalo, inson o'zini anglash va hissiyotlarini boshqarishni o'rganishi zarur. **Ijobiy fikrlash** bu borada eng muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki u insonni hayotdagi ijobiy tomonlarga e'tibor qaratishga undaydi. Shu bilan birga, **meditatsiya**, chuqur nafas olish mashqlari va sport bilan shug'ullanish orqali **emotsional barqarorlikni** tiklash mumkin. **Psixoprofilaktika** choralariga muntazam amal qilish — ya'ni dam olish, sog'lom uyqu, ijtimoiy muloqot va sevimli mashg'ulotlarga vaqt ajratish — **psixologik bosimni** kamaytiradi. Odamlar o'z his-tuyg'ularini yashirish o'rniga ularni tahlil qilib, ularni to'g'ri yo'naltirishni o'rgansa, tashvish darajasi ancha pasayadi. Shu tarzda, inson nafaqat ichki tinchlikka, balki umumiy **ruhiy holatning** sog'lomlashishiga ham erishadi.

Natijalar: O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashvish (anksiyete) holati ko'p hollarda insonning ichki kechinmalari, hayotdagi bosimlar va **stress** darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holatning davom etishi insonning umumiy **ruhiy holati**, ish faoliyati va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tashvishni o'z vaqtida aniqlash va uni kamaytirish usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tajriba va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, **tinchlanish usullari, meditatsiya** va **ijobiy fikrlash** insonning hissiy barqarorligini tiklashda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, **psixoprofilaktika** choralariga rioya qilish — ya'ni muntazam dam olish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, sog'lom uyqu va ijtimoiy muloqotda faol bo'lish — **psixologik bosimni** kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, inson o'z hissiyotlarini nazorat qilishni, salbiy fikrlarni ijobiy yo'nalishga o'zgartirishni

o'rganida, **emotsional barqarorlik** holatiga erishadi. Natijada, tashvish darajasi pasayadi va shaxsning hayot sifati yaxshilanadi.

Xulosa: Yig'ilgan ma'lumotlar va o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashvish (anksiyete) holati inson ruhiyatida tabiiy jarayon bo'lsa-da, uning kuchayib borishi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir insonda tashvishning sabablari turlicha bo'lib, ular ko'pincha **stress**, ichki kechinmalar yoki tashqi bosim natijasida yuzaga keladi. Shu sababli, bu holatni vaqtida aniqlash va uni kamaytirishning samarali yo'llarini qo'llash muhimdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, **ijobiy fikrlash, meditatsiya, tinchlanish usullari va psixoprofilaktika** insonning ruhiy barqarorligini tiklashda eng samarali usullar hisoblanadi. Bu usullar insonni ichki tinchlikka olib boradi, **psixologik bosimni** kamaytiradi va **emotsional barqarorlikni** mustahkamlaydi. Shunday qilib, tashvish holatini to'liq bartaraf etish emas, balki uni boshqarishni o'rganish har bir insonning ruhiy salomatligi uchun muhim hisoblanadi. Inson o'z his-tuyg'ularini anglab, ularni ijobiy yo'nalishda boshqarishni o'rgansa, hayotga bo'lgan munosabati yanada sog'lom va barqaror bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, S. (2020). *Stress va ruhiy barqarorlikning inson salomatligiga ta'siri*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Alimov, R. (2021). *Psixologik bosim va tashvish holatining shakllanish omillari*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Jo'rayev, A. (2022). *Inson ruhiy holati va emotsional boshqaruv texnikalari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Karimova, D. (2019). *Tashvish, depressiya va ularni yengish yo'llari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Norboyeva, N. (2023). *Meditatsiya va ijobiy fikrlashning psixologik foydasi*. Namangan: Ziyonuri.
6. Tursunov, B. (2022). *Psixoprofilaktika va shaxs ruhiy salomatligi*. Buxoro: Ilmiy meros.
7. Yo'ldosheva, M. (2021). *Emotsional barqarorlikni shakllantirish usullari*. Farg'ona: Yangi hayot.

PEDAGOGIK JARAYON SUBYEKTINING INTELEKTUAL IMKONIYATLARINI DIAGNOSTIK O'RGANISH

Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

(msattorova090@gmail.com)

Annotatsiya (o'zbek tilida)

Ushbu maqolada pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish masalalari yoritilgan. Pedagogik diagnostikaning mohiyati, maqsadlari, vazifalari, diagnostik usullar va olimlarning fikrlari asosida tahlil qilindi. Jahon va milliy olimlarning fikrlariga tayangan holda, diagnostika jarayonida qo'llaniladigan asosiy metodlar, tashxisiy o'rganishning pedagogik jarayonni rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Maqola oxirida xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar:

Pedagogik diagnostika, intellektual imkoniyat, diagnostik metodlar, tafakkur, IQ, o'qitish samaradorligi.

Аннотация (на русском языке)

В данной статье рассматриваются вопросы диагностического изучения интеллектуальных возможностей субъектов педагогического процесса. Проанализированы сущность, цели, задачи педагогической диагностики, а также диагностические методы и взгляды ученых. На основе мнений отечественных и зарубежных ученых определены основные методы диагностики, показана роль диагностического изучения в развитии педагогического процесса. В заключении приведены выводы и рекомендации.

Ключевые слова:

Педагогическая диагностика, интеллектуальные способности, диагностические методы, мышление, IQ, эффективность обучения.

Annotation (in English)

This article explores the issues of diagnostic study of the intellectual capabilities of subjects in the pedagogical process. The essence, goals, and objectives of pedagogical diagnostics, as well as diagnostic methods and scholars' opinions, are analyzed. Based on the views of national and international scholars, the main diagnostic methods are identified, and the role of diagnostic research in the development of the pedagogical process is demonstrated. The article concludes with findings and recommendations.

Keywords:

Pedagogical diagnostics, intellectual abilities, diagnostic methods, thinking, IQ, learning efficiency.

Kirish

Bugungi tez o'zgaruvchan davrda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostikaning o'rni muhim hisoblanadi. O'quvchilar va o'qituvchilarning intellektual imkoniyatlarini aniqlash, baholash va tahlil qilish pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilishga imkon yaratadi. Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish ilmiy jihatdan asoslangan metodlar, yondashuvlar va tahlil vositalarini talab qiladi.

Pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

Asosiy qism

Pedagogikada diagnostik o'rganish tushunchasi

Pedagogik diagnostika – bu o'quvchilarning aqliy, ijtimoiy, shaxsiy va psixologik rivojlanishini aniqlash, tahlil qilish, baholash va natijalarga asoslanib ta'lim jarayonini boshqarishga xizmat qiluvchi tizimli jarayon hisoblanadi. Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi – shaxsiy yondashuvni amalga oshirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, o'qitish va tarbiyalash jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. Pedagogika diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmokda. Savol tug' ilmoqda:

- bola qobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan ko'nikmalarining o'lchovi bormi?
- bolaning bilish va ko'nikmalariga belgilashga o'qituvchi aralashgani ma'qulmi yoki o'ziga uzi baxo bergani afzalroqmi?

Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Mana shu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik

mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyati tarixi bilan deyarli tengdosh.

Pedagogik diagnostika:

- o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi;
- davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib, o'quvchi bilimini to'g'ri, adolatli baholashni ta'minlaydi;
- ishlab chiqilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orqali o'quvchining sinfdan sinfga o'tishda, mutaxassislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim obyekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baholanadi.

Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimni baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Ressler asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o'quvchi bilimni sinash tizimini tadbiq etgan. Egallangan malakani aniqlashga qaratilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatining ayrim jihatlari:

- a) taqqoslash;
- b) pedagogik taxlil;
- v) avvaldan ayta bilish (prognoz);
- g) interpretatsiya;
- d) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga yetkazib berish;
- e) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga yetkazish;
- j) pedagogik diagnostika matodlarini to'g'ri belgilashdan iborat bo'lgan.

Pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalari

- O'quvchilarning intellektual darajasini baholash.
- O'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.
- Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilish.
- O'qitish samaradorligini nazorat qilish.

Intellektual imkoniyatlarni o'rganishda olimlar fikri

A. Bine IQ tushunchasini joriy qilgan bo'lib, insonning muammolarni yechish va moslashish qobiliyatini baholashni asosiy mezon deb bilgan. J. Piaget bolaning intellektual rivojlanishini bosqichma-bosqich o'rganib, uning tafakkur operatsiyalarini aniqlashni tavsiya etgan. L. S. Vygotskiy 'yaqin rivojlanish zonasi' konsepsiyasini ishlab chiqib, ijtimoiy muhitning aqliy rivojlanishga ta'sirini isbotlagan. G. Gardner

esa ko'p intellekt nazariyasini ilgari surib, odamning turli xil intellekt turlari orqali baholanishi kerakligini ta'kidlagan. Shuningdek, R. Sternberg, V. A. Krutetskiy, Sh. Amonashvili va mamlakatimiz olimlari (B. Xodjayev, I. Raxmonov, M. Sharipov) pedagogik diagnostikani milliy sharoitda rivojlantirishga hissa qo'shgan.

Intellektual imkoniyatlarni diagnostik o'rganish usullari

Pedagogik diagnostikada quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

- Psixologik testlar (IQ, tafakkur turlari, kreativlik testlari).
- Kuzatish, suhbat, portfel tahlili.
- Muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish topshiriqlari.
- Portfolio va ijodiy ishlardan foydalanish.

Diagnostikaning pedagogik jarayondagi o'rni

Diagnostik o'rganish o'quvchilarni chuqur tushunish, individual rivojlanish yo'llarini aniqlash va ularga moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda asosiy vositadir. Bunday yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali o'zaro ta'sirni ta'minlaydi.

Xulosa

Ushbu maqolada pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganishning nazariy-asosiy jihatlari, maqsad va vazifalari hamda amaliy usullari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika — ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish, o'qitish samaradorligini oshirish va ta'lim tizimini doimiy takomillashtirishga xizmat qiluvchi zarur jarayon. Binet, Piaget, Vygotskiy, Gardner, Sternberg kabi olimlarning nazariyalari diagnostikaning mazmunini boyitib, intellektual imkoniyatlarni baholashda ko'p jihatdan bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar — standart testlardan tortib, ijtimoiy-madaniy kontekstga asoslangan baholashgacha — qo'llanishi kerakligini ko'rsatadi.

Maqolada ta'kidlangan asosiy g'oyalar:

- ✓ diagnostika faqat test natijalariga emas, balki kuzatuv, suhbat, portfel va muammoli vazifalar orqali olingan ma'lumotlarni integratsiyalashga asoslangan bo'lishi lozim;

sifatli diagnostika uchun ishonchlilik, validlik va ob'ektivlik tamoyillari qat'iy saqlanishi kerak;

- ✓ intellektual imkoniyatlarni aniqlash pedagogga individual ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, ijtimoiy-oila omillarini inobatga olishda va pedagogik aralashuvlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishda muhim yordam beradi;
- ✓ milliy sharoit va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda diagnostik vositalarni moslashtirish va o'zlashtirish talab etiladi.

Asosiy tavsiyalar

Ko'p uslubli diagnostika tizimini joriy etish. Standart psixologik testlar, kuzatuv va intervyular, portfel tahlili va ijodiy/task-based baholashlarning uyg'un kombinatsiyasi amaliyotda qo'llanilsin.

Pedagoglarni diagnostika bo'yicha o'qitish va malaka oshirish. O'qituvchilarga testlarni to'g'ri tanlash, natijalarni talqin qilish, o'quvchilarga individual rivojlanish yo'llarini belgilash bo'yicha muntazam treninglar tashkil etilsin.

Mahalliy va madaniy jihatdan moslashtirilgan diagnostik vositalar ishlab chiqilsin. Milliy kontekstga mos, til va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan diagnostika instrumentlari yaratilib, ularning ishonchliligi va validligi tekshirilsin.

Etika va maxfiylik tamoyillariga rioya qiling. Diagnostika jarayonida o'quvchi va ota-onalarning roziligi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va natijalarni sezgirlik bilan talqin qilish qoidalari qat'iy saqlansin.

Diagnostika natijalaridan dars rejalashtirishda va individual ta'lim yo'llarini tuzishda foydalanilsin. Natijalar asosida differentsial ta'lim, qo'shimcha yordam (remediatsiya), hamda talaba iqtidorini qo'llab-quvvatlash strategiyalari ishlab chiqilsin.

Ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish. Ota-onalarga diagnostika natijalari haqida tushuntirish, ularni ta'lim jarayoniga jalb etish tizimi yo'lga qo'yilsin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Diagnostika ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va monitoring qilish uchun elektron platformalar, portfoliolar va ma'lumotlar bazalari joriy etilsin.

Ta'lim siyosatini diagnostika asosida shakllantirish. Milliy va mahalliy darajada diagnostika natijalariga asoslangan ta'lim strategiyalari, dasturlar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilsin.

Muntazam monitoring va baholash. Ta'lim jarayonida diagnostik tekshiruvlar doimiy amalga oshirib borilsin — o'zgarishlar, erishilgan natijalar va muammolar tezda aniqlansin.

Ko'p tarmoqli yondashuv. Diagnostika va rehabilitatsiya ishlarida pedagog, psixolog, ijtimoiy xodim va ota-onalar ishtirokida jamoaviy ish tashkil etilsin.

Pedagogik diagnostika — zamonaviy ta'limning mustahkam poydevori. U shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Diagnostik yondashuvlarni professional tarzda joriy etish, ularni milliy ehtiyojlarga moslashtirish va doimiy empiric tekshiruvlar bilan qo'llab-quvvatlash orqali biz ta'lim jarayonini yanada samarali, adolatli va natijaviy qila

olamiz. Tadqiqotchilar, amaliyotchi pedagoglar va siyosat ishlab chiquvchilar birgalikda ishlash orqali bu maqsadlarga erishishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bine A., Simon T. "Metod novogo testirovaniya" – Paris, 1905.
2. Vygotskiy L. S. "Psixologiya razvitiya rebenka" – M., 1984.
3. Piaget J. "Psixologiya intellekta" – M., 2001.
4. Gardner H. "Struktura razuma" – M., 2007.
5. Sternberg R. "Triarxik intellekt nazariyasi" – Nyu-York, 1985.
6. Krutetskiy V. A. "Psixologiya umstvennix sposobnostey" – M., 1972.
7. Amonashvili Sh. A. "Gumanisticheskaya pedagogika" – Tbilisi, 1990.
8. Xodjayev B., Raxmonov I., Sharipov M. "Pedagogik diagnostika" – Toshkent, 2018.
9. Ravan J. "Progresiv matrical testi" – London, 1976.
10. Torrens P. "Kreativlik testlari" – Nyu-York, 1974.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO FOSTERING PRIMARY SCHOOL TEACHERS' CREATIVE AND CRITICAL THINKING THROUGH THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Mukhlisa Jumayeva

Researcher at the Uzbekistan National Pedagogical University Doctor of Philosophy
in Pedagogical Sciences, (PhD)

e-mail: jumayevamuxlisa40@gmail.com

Orcid: 0009-0007-0081-4783

Phone: (90) 761 37 37

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot konstruktivizm va transformativ ta'lim nazariyalariga asoslanib, sun'iy intellektni innovatsion ta'lim amaliyotini qo'llab-quvvatlovchi kognitiv vosita sifatida baholaydi. Maqolada SI asosidagi platformalarning o'qituvchilarni individuallashtirilgan tarzda tayyorlash, reflektiv fikrlashni rivojlantirish va amaliy muammolarni hal qilishdagi salohiyati yoritilgan. O'qituvchi tayyorlash dasturlariga SI ni integratsiya qilishning samarali strategiyalari, jumladan adaptiv o'quv muhitlari, aqlli repetitor tizimlari va SI asosidagi formatif baholash vositalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan foydalanishni pedagogik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Maqolada ta'lim siyosatchilari, o'quv dastur tuzuvchilar va trener-o'qituvchilar uchun sun'iy intellektdan boyitilgan o'quv ekotizimini yaratishga doir tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, o'qituvchilarni tayyorlash, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, pedagogik yondashuvlar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, adaptiv ta'lim, aqlli tizimlar, raqamli pedagogika.

Аннотация

В статье рассматриваются современные педагогические подходы, направленные на развитие креативного и критического мышления у учителей начальных классов посредством интеграции технологий искусственного интеллекта (ИИ). Исследование основано на теоретических концепциях конструктивизма и трансформативного обучения, подчёркивающих роль ИИ как когнитивного инструмента, способствующего инновационной образовательной практике. Анализируются возможности ИИ-платформ для персонализации подготовки

учителей, стимулирования рефлексивного мышления и решения практических педагогических задач. Особое внимание уделяется стратегиям внедрения ИИ в содержание программ подготовки педагогов, включая адаптивные обучающие среды, интеллектуальные репетиторские системы и инструменты формирующего оценивания на основе ИИ. Результаты подчёркивают необходимость соответствия между педагогическими целями и использованием ИИ для развития ключевых компетенций XXI века. Даны рекомендации для образовательных политиков, разработчиков учебных программ и преподавателей по созданию образовательной экосистемы, обогащённой ИИ, в целях устойчивого профессионального развития.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогическое образование, креативное мышление, критическое мышление, педагогические подходы, учителя начальных классов, адаптивное обучение, интеллектуальные системы, цифровая педагогика.

Annotation

This article explores contemporary pedagogical approaches aimed at enhancing primary school teachers' creative and critical thinking competencies through the integration of artificial intelligence (AI) technologies. The study is grounded in the theoretical frameworks of constructivism and transformative learning, emphasizing the role of AI as a cognitive tool that supports innovative educational practices. It analyzes the potential of AI-based platforms to personalize teacher training, promote reflective thinking, and facilitate problem-solving in real-world teaching scenarios. The research highlights key strategies for embedding AI into teacher education curricula, such as adaptive learning environments, intelligent tutoring systems, and AI-driven formative assessment tools. The findings underscore the importance of aligning AI integration with pedagogical goals to ensure the development of essential 21st-century skills among educators. Recommendations are provided for educational policymakers, curriculum designers, and teacher trainers to foster an AI-enriched learning ecosystem that supports sustainable professional development.

Keywords: Artificial intelligence, teacher education, creative thinking, critical thinking, pedagogical approaches, primary school teachers, adaptive learning, intelligent systems, digital pedagogy.

In the rapidly evolving landscape of education, the integration of artificial intelligence (AI) technologies has become a transformative force reshaping teaching and learning processes. While much of the existing research focuses on the application of AI to enhance student learning outcomes, comparatively less attention has been paid to how

AI can be effectively utilized to support the professional development of teachers, particularly in fostering creative and critical thinking skills. These competencies are essential for educators navigating the complexities of 21st-century classrooms, where adaptability, innovation, and reflective practice are increasingly in demand.

Primary school teachers, in particular, play a foundational role in shaping students' cognitive and socio-emotional development. Therefore, equipping them with the ability to think creatively and critically is not only beneficial for their personal professional growth but also vital for cultivating these skills among young learners. However, traditional models of teacher education often fall short in promoting deep, reflective, and innovative thinking. In this context, AI technologies offer new opportunities for designing personalized, interactive, and data-driven professional learning experiences that can empower teachers to become more effective, autonomous, and future-ready.

This article aims to explore the pedagogical foundations and practical approaches to integrating AI technologies in teacher training programs, with a particular emphasis on enhancing creative and critical thinking among primary school educators. Drawing on theoretical perspectives from constructivism, transformative learning, and digital pedagogy, the study provides a conceptual framework for understanding the role of AI in shaping modern teacher competencies. Furthermore, it examines the potential of intelligent systems—such as adaptive learning platforms, AI-driven formative assessments, and virtual teaching assistants—to support teacher cognition, decision-making, and problem-solving. The findings seek to inform educational policymakers, curriculum developers, and teacher educators in developing AI-enriched ecosystems for sustainable professional development.

The integration of artificial intelligence (AI) in education has been widely studied over the past decade, particularly in relation to personalized learning, intelligent tutoring systems, and automated assessment. However, its application in teacher professional development—especially in cultivating higher-order thinking skills such as creativity and critical thinking—remains an emerging area of inquiry.

Several scholars have highlighted the potential of AI to transform teacher education. Luckin et al. (2016) emphasized that AI can serve as a “partner in learning,” providing real-time feedback, scaffolding reflective thinking, and facilitating metacognitive development. Similarly, Holmes et al. (2019) argued that AI-enhanced learning environments can support teachers in identifying patterns in classroom interactions, thereby fostering deeper pedagogical insights and adaptive teaching practices. From a pedagogical standpoint, constructivist theories (Piaget, Vygotsky) provide a solid foundation for understanding how AI tools can mediate learning experiences that are

active, contextualized, and learner-centered. For example, intelligent systems can simulate real-life teaching scenarios that require creative problem-solving and critical decision-making, allowing teachers to practice and refine their professional judgment in a safe and controlled environment.

In the domain of creative and critical thinking development, Torrance (1974) and Paul & Elder (2006) have outlined frameworks that emphasize the importance of questioning, divergent thinking, and evaluative reasoning. AI systems can be designed to align with these frameworks by offering open-ended challenges, prompting inquiry-based exploration, and facilitating constructive feedback loops.

Moreover, recent advances in AI-powered learning analytics allow for the monitoring of teacher engagement and progress, enabling the personalization of professional development pathways. This aligns with the concept of adaptive learning, which tailors content and support based on an individual's needs and performance—a key principle in fostering sustained cognitive growth.

Despite these advancements, there are concerns regarding the ethical implications of AI use in education, including data privacy, algorithmic bias, and the potential depersonalization of teacher training. Therefore, it is essential to approach the implementation of AI technologies with a critical lens, ensuring that their use enhances rather than replaces human-centered pedagogical practices.

In summary, the literature suggests a growing recognition of AI's capacity to support the development of creative and critical thinking skills among teachers. However, further empirical research is needed to establish best practices, assess impact, and explore scalable models for AI integration in teacher education, particularly at the primary school level.

Methodology

This study employed a qualitative research design grounded in interpretivist epistemology, which is appropriate for exploring complex, context-dependent phenomena such as teacher cognition, pedagogical practices, and professional development. The aim was to examine how artificial intelligence (AI) technologies can be integrated into primary teacher education to enhance creative and critical thinking skills, and to identify effective pedagogical approaches for such integration.

Research Design. A multiple case study methodology was adopted to investigate the experiences of teacher educators and pre-service primary school teachers across three teacher training institutions. This approach enabled in-depth analysis of AI implementation in varied educational contexts and facilitated the identification of patterns, challenges, and best practices.

Participants. The study involved 18 participants: 9 teacher educators and 9 pre-service primary school teachers selected through purposive sampling. Participants were chosen based on their active involvement in AI-integrated teaching or training programs. All participants had at least one year of experience using digital or AI-supported tools in pedagogical settings.

Data Collection Methods. Data were collected using three primary methods:

Semi-structured interviews with teacher educators and pre-service teachers to gather insights into their perceptions, experiences, and attitudes toward the use of AI in fostering creative and critical thinking.

Document analysis, including training curricula, lesson plans, and platform usage reports, to understand how AI technologies were embedded into instructional design.

Classroom observations of AI-supported micro-teaching sessions, focusing on how AI tools (e.g., adaptive learning platforms, virtual simulations) facilitated higher-order thinking processes.

Data Analysis. Thematic analysis was conducted using NVivo software. Data were coded inductively to identify recurring themes related to the development of creative and critical thinking, the pedagogical role of AI, and barriers to effective integration. Trustworthiness was ensured through triangulation of data sources, member checking, and peer debriefing.

Ethical Considerations. All participants provided informed consent prior to participation. Institutional ethical approval was obtained, and participants' confidentiality and anonymity were maintained throughout the research process. Data were securely stored and used exclusively for academic purposes.

REFERENCES:

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning*. Center for Curriculum Redesign. <https://curriculumredesign.org>
- pedagogik-tarixiy bilimlar - bo'lajak pedagoglarning milliy, tarixiy, ma'naviy-pedagogik ongini shakllantirishga faol ta'sir etishini nazarda tutish va h.k.

Muhokama

Tarixiy jarayonlarni tahlil qilish pedagogika uchun ikki yo'nalishda foydalidir: birinchidan, o'tmishdagi ta'lim shakllarini o'rganish orqali bugungi tizimdagi kamchiliklarni aniqlash mumkin; ikkinchidan, ilg'or tarixiy tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, tarix fanining o'zgaruvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va tarixiy tafakkurni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik jarayonda tarixiy merosdan foydalanish nafaqat o'zgaruvchan mazmunini boyitadi, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tarix fanining pedagogika sohasi rivojidadagi o'zgaruvchan beqiyosdir. Tarixiy tajribani chuqur o'rganish orqali pedagogik nazariya va amaliyotni takomillashtirish, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Tarix va pedagogika uyg'unligi yosh avlodni har tomonlama yetuk, tafakkuri keng va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogika tarixi fani yoshlarning ijtimoiy tafakkurida sodir bo'lgan yangilanishlarni, ma'naviyatida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'pchilikning xulq-atvoriga aylantiradigan, ya'ni jamiyatning aksariyat faol a'zolari yoshlarda ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal kabi va yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishga da'vat etadigan ijtimoiy faoliyatdir. Yoshlarimiz ijtimoiy tafakkuridagi yangilanishlar harakat faktoriga aylanib mustaqillik qo'lga kiritildi, natijada mustaqil O'zbekiston Respublikasi vujudga keldi.

Mustaqil yurtda, sog'lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan barkamol avlodning ma'naviyatini shakllantirishday, ta'lim-tarbiyasini yuksak darajaga ko'tarishday zalvarli yumush borki, u bilan pedagogika tarixi fani shug'ullanadi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va amaliyotining bugunga kelib, maqsadi tamomila o'zgardi. U mafkura iskanjasidan xalos bo'lib, o'ziga xos sof ilmiy qonuniyatlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lganligi tufayli bilim berish, mutaxassis tayyorlashni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan pedagogika tarixidan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayonga aylanib borayotganligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va ijtimoiy-tarixiy asosga ega bo'lishi, ta'lim va tarbiyaning pirovard natijasini sog'lom pedagogik falsafa belgilab berishi zarurligini anglash vaqti yetdi. Pedagogik falsafa o'zgarganligi milliy tarbiyashunosligimizning sog'lom yo'nalishlardan borishini ta'minlaydigan omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Xodjiev D. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
2. To'xtayev A. **Tarixni o'qitish metodikasi.** — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Ortiqova N. **Didaktika va pedagogik texnologiyalar.** — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** — Toshkent: TDPU, 2019.
5. Shamsutdinov R. **Tarix ta'limining nazariy asoslari.** — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

UMUMXALQ O'ZBEK TILI VA SHEVALARI VA UNING TARKIBIDAGI SHEVALAR.

Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna

Termiz davlat universiteti ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Og'zaki shakl so'z, tovush, gap, ohang, pauza (to'xtam) bilan ish ko'radi. Yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgilari bilan ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari o'z me'yorlariga ega. Adabiy tilning og'zaki shakli insonlar orasida bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasidir. Turk atamasining *urug'*, *elat*, *bahodir*, *qalpoq*, *bo'ri*, *kuchli*, *qud-ratli*, *qurolsizlar*, *dubulg'a* ma'nolarida ishlatilgani adabiyotlarda qayd etilgan. Turk nomi o'tmishda turkiy tillarning umumiy nomini bildirishi bilan birga o'zbek xalqi va tiliga nisbatan ham qo'llangan

Kalit so'zlar: Sheva, lahja, qarluq, qipchoq, o'g'uz, umumxalq tili, adabiy til, og'zaki, yozma, fonetik, leksik, Grammatik.

Mutafakkirimiz Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschisimi yoki o'zbek adabiy tilining? Bu savolga javob topish uchun **umumxalq tili** va **adabiy tilning** farqini ajrata olish kerak.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. Uni xalq sekinlik bilan yaratib, boyitib boradi. Adabiy til esa umumxalq tilining yozuvchilar, shoirlar, ziyolilar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, hamma uchun umumiy bo'lgan, umumxalq yoki umummillat tilining yuqori, sayqal-lashtirilgan shaklidir. Davlat muassasalarida, madaniyat sohalarida, mat-buotda, dars o'tishda adabiy tildan foydalaniladi.

Umumxalq tilini xalq yaratadi. Adabiy tilni ziyolilar yaratadi. Lekin adabiy til xalq tili tarkibida bo'ladi.

Umumxalq tilining adabiy til shakliga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlar mavjud:

1. Adabiy til yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi kerak;
2. Mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo'lishi kerak;
3. Ma'lum qoidaqonunlarga bo'ysunishi kerak;

Dunyodagi ko'pgina tillarning hozir ham adabiy til shakli yo'q.

Adabiy tilning **og'zaki** va **yo'zma shakllari** mavjud. Og'zaki shakl so'z, tovush, gap, ohang, pauza (to'xtam) bilan ish ko'radi. Yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgilari bilan ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari o'z me'yorlariga ega.

Adabiy tilning og'zaki shakli insonlar orasida bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasidir. Chunki yozuvda qog'oz, ruchka, yorug'lik bo'lishi kerak. Og'zaki gaplashishda hech narsa shart emas.

Demak, yuqoridagi savolimizga Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi deb javob berishimiz kerak bo'ladi.

Adabiy til lahjalar, shevalar negizida umumlashtirish, qat'iy me'yorlarni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi va ulardan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevalaridan uzilgan emas. Adabiy tilning shevalardan so'zlar olib boyib borishi **ichki manba**, boshqa tillardan so'z olib rivojlanishi **tashqi manba** hisoblanadi.

Faqat muayyan hududga xos ayrim belgilarini o'zida namoyon qilgan til shakli **shevalar** hisoblanadi.

Birbiriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi esa **lahja** deb yuritiladi.

Dialekt esa gohida sheva atamasi ma'nosida, gohida lahja atamasi ma'nosida keladi: *toshkent dialekti* (shevasi), *qipchoq dialekti* (lahjasi) kabi.

Adabiy til shevalardan **fonetik**, **leksik** va **grammatik** jihatdan ozmi ko'pmi farq qiladi. Fonetik deganda tovush tomonidan: *pabrika – fabrika, man – men, jila – yig'la* kabi; leksik esa so'z tomonidan: *kalapo'sh – do'ppi, go'sala – buzoq* kabi; grammatik deganda so'z shakli yoki qo'shimchalardagi *borayapti – borvotti – borutdi* kabi farqlar tushunilishi kerak.

Shevalarning faqat og'zaki shakli mavjud. Shevalarning o'ziga xos xusu-siyatlari adabiy tilning ta'siri bilan asta-sekin yo'qolib boradi.

O'zbek tili tarkibida **uchta lahja** bor:

1. **Qarluq lahjasi (janubiysharqiy guruh).**
2. **Qipchoq lahjasi (janubiyg'arbiy guruh).**
3. **O'g'iz lahjasi (shimoliyg'arbiy guruh).**

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va grammatik belgilari quyidagilar:

- 1) so'z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *elak – elay, terak – teray* kabi;
- 2) **o** lashish yuz beradi: *aka – oka, Akram – Akrom* kabi;
- 3) qaratqich va tushum kelishigi **ni** tarzida: *ukamni daftari* kabi.

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan.

Belgilari quyidagilar:

- 1) **y** o'rnida **j** ishlatiladi: *yo'l – jo'l, yo'q – jo'q* kabi;
- 2) **g'** o'rnida **v** ishlatiladi: *tog' – tov, sog' – sov* kabi;

3) **k, q** tushuriladi: *eshi(k)*, *sari(q)* va boshqalar.

O'g'iz lahjasi janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: *at (hayvon)*, *a:t (ism)* kabi;

2) **t** tovushi **d, k** tovushi esa **g** tarzida aytiladi: *tog' – dog'*, *keldi – galdi* kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan **Farg'ona-Toshkent shevalari**, ya'ni **Toshkent shevasi fonetik** tomondan; **Farg'ona shevasi morfologik** tomondan asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va o'g'uz lahjasi xususiyatlari adabiy tilda yo'q degani emas.

Yer yuzida yashayotgan xalqlar to'satdan yoki tasodifan paydo bo'lgan emas. Ular turli nomlar bilan hayot so'qmoqlarini bosib o'tishgan. O'zbek qavmlari ham o'z nomiga ega bo'lguncha turli etnik nomlar ostida yashagan. O'zbek qavmlari asrlar osha qadimgi turkiy davrlarda tarixan shakllangan bir guruh qabilalardan tashkil topgan. Garchand o'zbek nomi bo'lmasada, o'zbek xalqining birinchi qatlami XXXI asrlarda qoraxoniylar davrida **qorluq, chigil, yog'mo** qabilalari ittifoqi zaminida hosil bo'lgan. O'zbek tili mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshlagan. O'zbek xalqi XX asrning boshlarigacha turk, sart, chig'atoy, o'zbek atamalari bilan nomla-nib kelgan.

Turk atamasining *urug'*, *elat*, *bahodir*, *qalpoq*, *bo'ri*, *kuchli*, *qud-ratli*, *qurolsizlar*, *dubulg'a* ma'nolarida ishlatilgani adabiyotlarda qayd etilgan. Turk nomi o'tmishda turkiy tillarning umumiy nomini bildirishi bilan birga o'zbek xalqi va tiliga nisbatan ham qo'llangan.

Sart atamasi XVI asrdan boshlab, o'zbeklar bo'lgan shahar aholisiga nisbatan ishlatila boshlagan. Sart so'zi *karvonboshi*, *savdogar*, *shaharlik* ma'nolarida sanskrit tilida qo'llangan.

Chig'atoy atamasi mo'g'ullar istilosidan keyin paydo bo'lgan. Chingiz-xonning o'rtancha farzandi bo'lgan Chig'atoy O'rta Osiyo va Afg'onistonni idora qilgan. Natijada **chig'atoy yurti**, **chig'atoy ulusi**, **chig'atoy adabiyoti**, **chig'atoy tili** degan atamalari qo'llana boshlagan.

O'zbek so'zi esa *urug'*, *qabila*, *elat*, *saxiy*, *odamiy*, *diltortuvchi*, *sevgili* ma'nolarda Lutfiy, Atoiy, Navoiy asarlarida uchraydi.

Farzandlarimizni ko'r -ko'rona oligofrenik qilib yetishtirmayapmizmi?

Namangan Davlat Universiteti Biotexnologiya fakulteti Biologiya kafedrası
stajor-o'qituvchisi

Sadikova Olima Zoxid qizi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning, xususan, gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar ruhiy hamda jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida "oligofreniya" tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, shakllari va belgilari tahlil qilinadi. Muallif bolalarda nutqning buzilishi, emotsional beqarorlik, fikrlashdagi sustlik, jismoniy rivojlanishning orqada qolishi kabi belgilarni texnologiyalardan ortiqcha foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan xavfli holatlar bilan solishtiradi. Shuningdek, maqolada "nomofobiya" telefondan ajralolmaslik sindromi va uning bolalar sog'lig'iga ta'siri haqida ilmiy hamda amaliy xulosalar keltiriladi. Asosiy maqsad ota-onalar va jamiyatni texnologiyalardan to'g'ri foydalanish madaniyatiga chaqirish hamda kelajak avlod sog'lig'ini asrash zarurligini ta'kidlashdir.

Kalit so'zlar: Oligofreniya, texnologiya, nomofobiya, bolalar rivojlanishi, ruhiy salomatlik, gadjetga qaramlik, emotsional buzilish, ota-onalar mas'uliyati.

Kunimizda deyarli har 10 bolaning 7 tasi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar quliga aylanib bormoqda. Buning salbiy oqibatlarini ko'rmaytgandirmiz hozircha... Ammo yaqin 50 yil ichida sog'lom tug'ulgan bolalar oligofrenik tug'ulgan bolalardan farq qilmay qolishlari ayni haqiqatga yaqindir. Keling Oligofreniya kasalligi nima? U qanday namoyon bo'ladi? Kabi savollarga javob izlab ko'ramiz.

Oligofreniya - bu irsiy omillar yoki o'tkazilgan kasalliklar tufayli kelib chiqqan ruhiy rivojlanishning tug'ma yoki uch yoshgacha orttirilgan orqada qolishidir.

Oligofreniya bir nechta asosiy shakllarga bo'linadigan turli omillar tufayli kelib chiqishi mumkin:

Irsiy oligofreniya

Sabablari: Ota-onalardan birining generativ hujayralarida irsiy yo'l bilan o'tadigan nuqsonlar.

Misollar: Daun kasalligi, ruhiy rivojlanishdan ortda qolish, suyaklar va terining jiddiy shikastlanishlarida mikrotsefaliya.

Bachadon ichi omillari bilan bog'liq bo'lgan oligofreniya

Sabablari: Homiladorlik paytida onadan o'tgan virusli, parazitlar va bakterial infeksiyalar.

Misollar: Homilaning gemolitik kasalligi.

Tug'ruq travmalari va postnatal omillar tufayli ruhiy rivojlanishning kechikishi

Sabablari: tug'ruq paytida asfiksiya yoki gipoksiya, meningit, ensefalit, uch yoshgacha bosh miya jarohati.

Tug'ma kasalliklarning rivojlanishi tufayli yuzaga keladigan oligofreniya

Sabablari: Endokrin patologiyalar yoki bosh miya nuqsonlari.

Oligofreniya belgilari.

Erta yoshdagi bolalarda oligofreniya belgilari:

Ichki organlar tuzilishidagi og'ishlar

Tana, yuz va bosh tuzilishidagi buzilishlar

Fenilketonuriyaning yaqqol belgilari

Haddan tashqari oqish teri qoplamalari

Talvasa

Teri va siydikning nordon hidi

Mushaklar zaifligi

Juda yorqin moviy ko'zlar

Bolalarda quyidagilar ham kuzatilishi mumkin:

Boshni ushlay olmaslik

Turish va o'tirishdagi qiyinchiliklar

Oligofreniya kasalligining kelib chiqishi va belgilari haqida qisqacha tushuncha hosil qildik. Endi diqqatimizni quyidagi belgilarga qarataylik:

Bolalar va kattalar uchun umumiy oligofreniya belgilari:

1. Nutqning buzilishi

2. Emotsional holatning buzilishi

3. O'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaslik

4. Aqliy rivojlanishdan orqada qolish

5. Yuqori ta'sirchanlik

6. Abstrakt fikrlashning yetishmasligi

7. Odamlarning yuzlarini tanib olishdagi qiyinchiliklar

8. Jismoniy rivojlanishdan orqada qolish.

Yuqoridagi belgilar bugungi kundagi kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizda ham uchrayotgani hech kim inkor eta olmaydi.

Ko'p telefon yoki kompyuter oynagan bolada nutqning kechikishi, o'z emotsional holatini tartiblay olmaslik yoki boshqara olmaslik, tashqi har qanday ta'sirga tez reaksiya bera olmaslik yoki juda yuqori ta'sirchanlik, aniq ya'ni abstract fikrning yo'qligi va albatta jismoniy rivojlanishni orqada qolishi, bo'yning o'smay qolishi, ko'z sohasida rivojlanishning buzilishi yoki yo'qolishi, nerv sistemasidagi qator o'zgarishlar farzandlarimizni oligofeniklardan farq qilmay qolishlariga sabab emasmi?

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda 5-16 yoshdagi bolalar kuniga 3 soatdan 8 soatgacha vaqtini telefon qarshisida o'tkazadi. Buning natijasida ularda telefonga qaramlik, undan ayrilib qolishdan qo'rquv hissi paydo bo'ladi. XXI asr epidemiyasi deya ta'riflanuvchi bu kasallik **"nomofobiya"** deyiladi, – ta'kidlaydi mutaxassis.

Nomofobiya bolalar orasida eng ko'p tarqalgan psixologik kasalliklardan biriga aylanishga ulgurdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gadjetlarga bo'lgan tobelik darajasi, ayniqsa, u kichik yoshdan shakllanib kelgan bo'lsa, hatto, narkoqaramlikdan ham kuchliroq bo'lishi mumkin ekan. Telefondan uzoq vaqt davomida betartib foydalanish insonning ham jismoniy, ham ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi, telefonlar inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan elektromagnit to'lqinlar chiqaradi. To'lqinlardan nurlanishning zarari kichik yoshdagi bolalar uchun yanada kuchliroq bo'lib, bu ularda keyinchalik immunitetning pasayishi, asab tizimida muammolar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Gadjetlardan uzoq vaqt davomida foydalanishdan aziyat chekadigan asosiy organlardan biri – bu ko'zlar. Bolalar bir daqiqada o'rtacha 18-20 marta mijja qoqadi. Bu ko'zlarni namlantirib, ular zo'riqishining oldini oladi.

Aksariyat hollarda bolalar telefon ekraniga yaqin masofadan tikilib o'yin o'ynaydi, video ko'radi. Bunda ular mijja qoqishni unutadi va natijada ko'z zo'riqishni boshlaydi. Bu esa ko'z olmasining o'sib ketishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi, uzoqni yaxshi ko'ra olmaslik (miopiya), g'ilaylik, ko'zning surunkali yoshlanishi yoki qizarishi, ko'z qurib qolish sindromi kabi muammolarga olib kelishi mumkin.

Ota-onalar va bolalar buni darrov payqashmaydi. Ko'pincha gadjetlardan uzoq vaqt davomida foydalanish oqibatida kelib chiqqan ko'z kasalliklari bolalar maktabga chiqishi, ayrim hollarda esa hatto o'smirlik davrida, masalan harbiy xizmatga jo'nashdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish jarayonida aniqlanadi.

Kasallikni oldini olsa yoki davolash orqali keltiradigan zararlarini bir oz kamaytirsam bo'ladi ammo e'tiborsizligimiz, befarqligimiz, loqaydligimiz oqibatida sog'lom farzandlarimizni hastalardan farq qilmay qolishlariga pul sarflab, sharoit yaratib bermayapmizmi?

Bu tezis orqali nafaqat ota onalarni balki, butun insoniyatni ogohlikka chaqirmoqchiman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev H., Karimov F., & Ahmedov S. (2015). Genetika asoslari. Toshkent.
2. Musayev S. (2020). Tibbiyot genetikasi. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
3. Kunkel, T.A., & Bebenek, K. (2000). DNA replication fidelity and its implications for human disease. *Nature Reviews Genetics*, 1(1), 67-72.
4. Sanger, F., Nicklen, S., & Coulson, A.R. (1977). DNA sequencing with chain-terminating inhibitors. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 74(12), 5463-5467.
5. Mardis, E.R. (2008). Next-generation DNA sequencing methods. *Annual Review of Genomics and Human Genetics*, 387-402.

THE ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL VALUE OF THE FEMALE THEME IN THE WORKS OF HEMINGWAY AND FAULKNER

Boltabayeva Dilshoda Baxrommirza's daughter
An English teacher at school 63, Namangan district
dilshodabahrommirzayevna@gmail.com

Abstract. This paper explores the artistic and philosophical meaning of women's portrayals in the literary works of Ernest Hemingway and William Faulkner. In Hemingway's fiction, female figures represent ideals of freedom, love, and renewal, reflecting a search for identity and vitality in a changing world. In contrast, Faulkner's women are portrayed within the confines of social pressure, moral conflict, and the disintegration of traditional values. The research demonstrates that these female characters function not merely as individual heroines but as symbolic embodiment of the moral, spiritual, and philosophical dimensions of their time.

Keywords: Hemingway, Faulkner, female theme, artistic portrayal, philosophical meaning, freedom, moral values.

Болтабаева Дильшода Бахроммирзаевна,
учитель английского языка школы №63, Намаганский район
dilshodabahrommirzayevna@gmail.com

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ И ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЖЕНСКОГО СЮЖЕТА В ТВОРЧЕСТВЕ ХЕМИНГУЭЯ И ФОЛКНЕРА

Аннотация. В данной статье анализируется художественное и философское значение женских образов в произведениях Эрнеста Хемингуэя и Уильяма Фолкнера. В романах Хемингуэя женщины символизируют свободу, любовь и обновление общества, тогда как у Фолкнера женские образы часто раскрываются через призму социального давления, духовных страданий и разрушения ценностей. В исследовании подчеркивается, что женские персонажи выступают не только индивидуальными героями, но и художественными воплощениями духа и философии эпохи.

Ключевые слова: Хемингуэй, Фолкнер, женский сюжет, художественный образ, философское значение, свобода, ценности.

INTRODUCTION

The first half of the twentieth century occupies a special place in the history of world literature as a period marked by deep reflection on the human psyche, the collapse of traditional values, and the devastating impact of wars. The First World War led humanity not only to material destruction but also to a profound moral decline. As a

result, long-held ethical norms and notions such as faith, love, and human trust began to lose their meaning. In this atmosphere of spiritual emptiness and social instability, the image of women in literature acquired new philosophical and artistic significance. No longer portrayed merely as passive figures centered around love or family relationships, women emerged as independent individuals — seeking self-awareness, freedom, and moral autonomy.

In American literature, this transformation found its vivid expression in the works of Ernest Hemingway and William Faulkner. Hemingway's female characters often appear against the backdrop of post-war disillusionment, emotional loss, and despair. Through their inner struggles and search for meaning, the writer deepens his portrayal of the "Lost Generation." Faulkner, on the other hand, examines the role of women within the complex social fabric of the American South — amid family traditions, rigid moral expectations, and societal limitations. His heroines are depicted as strong yet internally conflicted figures, confronting questions of dignity, belief, and identity.

Thus, the image of women in early twentieth-century literature is not merely a romantic or sentimental theme, but rather a philosophical symbol of humanity's quest for self-understanding. Through Hemingway's and Faulkner's portrayals of women, readers can discern the psychological state of their age, the erosion of moral values, and the emergence of new spiritual directions. In this sense, the female narrative became a literary key to exploring the complex relationship between the individual and society in twentieth-century literature.

RESEARCH ANALYSES

In literary scholarship, the portrayal of women in the works of Ernest Hemingway and William Faulkner has been interpreted in various ways. Anderson views Hemingway's female characters as symbols of freedom and vitality. For instance, Brett Ashley, the heroine of *The Sun Also Rises*, represents a woman who strives for equality with men and seeks independence in a world shaped by disillusionment and loss [3].

Donaldson, meanwhile, interprets Caddy Compson from Faulkner's *The Sound and the Fury* as an embodiment of the intense conflict between the individual and society [4]. From the perspective of Uzbek scholars such as Abduvohidova and Zakirov, these female figures serve as a "mirror of the era's philosophy," reflecting the spiritual and social transformations of their time.

In summary, literary analyses suggest that Hemingway's women symbolize hope, vitality, and the pursuit of freedom, whereas Faulkner's women represent tragedy, internal conflict, and moral crisis [5–6]. Through these contrasting portrayals, both

writers illuminate different aspects of the twentieth-century human experience — the struggle between despair and resilience, confinement and self-realization..

RESEARCH METHODOLOGY

This study employed several analytical methods. The comparative method was used to contrast the representation of female characters in Hemingway's and Faulkner's works, allowing for a cross-analysis of their thematic and philosophical approaches. Through psychological analysis, the internal struggles, emotional turmoil, and spiritual quests of the heroines were explored in depth. The philosophical-aesthetic approach helped connect the portrayal of women to the broader worldview and moral philosophy of the early twentieth century. Finally, the historical-literary method was applied to situate the works within the social and cultural context of World War I and its aftermath.

ANALYSES AND RESULTS

The Artistic Portrayal of Women in Hemingway's Works. In Hemingway's fiction, the female figure embodies a quest for freedom and meaning in life. For instance, Brett Ashley in *The Sun Also Rises* represents a new type of woman in her era — independent, strong-willed, and capable of making her own decisions. She seeks equality with men and defies traditional gender expectations. For Hemingway, the female motif serves as a symbol of vitality, love, and spiritual liberation [1].

The Philosophical Dimension of Female Characters in Faulkner's Works. In Faulkner's writing, the image of women reflects the inner contradictions of society, moral decay, and existential suffering. Through Caddy Compson, the central female character in *The Sound and the Fury*, Faulkner dramatizes the struggle between personal freedom and the oppressive moral judgments of her community. Philosophically, Faulkner interprets the woman figure as an expression of lost spirituality and moral disintegration [2].

The Female Motif as a Mirror of the Era's Philosophy. In both Hemingway's and Faulkner's works, the female narrative functions not merely as a personal or romantic story but as a symbolic reflection of the philosophical and cultural state of their time. In Hemingway, the woman embodies thirst for life and freedom; in Faulkner, she becomes the emblem of disillusionment and the collapse of moral values. Therefore, the female theme in their works represents one of the central philosophical directions of twentieth-century literature.

CONCLUSION

In the works of Hemingway and Faulkner, the female narrative extends beyond personal or emotional experiences — it reflects the moral atmosphere and philosophical consciousness of the age. In Hemingway, women symbolize freedom, love, and renewal, whereas in Faulkner, they mirror social oppression and spiritual tragedy. Thus, the female motif in twentieth-century literature evolved into a core philosophical and artistic concept.

The creative legacy of Ernest Hemingway and William Faulkner marks a turning point in redefining the thematic and philosophical depth of the female image. In their fiction, women are not mere participants in emotional or domestic narratives; rather, they stand as embodiments of humanity's spiritual crisis, moral struggle, and existential reflection. Hemingway's heroines often emerge from the emotional vacuum of post-war life, expressing the human desire for meaning, faith, and renewal. Through them, he explores the philosophical ideas of freedom, love, loyalty, and self-discovery.

Faulkner's women, in contrast, live within the rigid social hierarchy of the American South, confronting tradition, patriarchy, and moral constraint. Their stories reveal deep issues of dignity, conscience, and the tension between inner strength and societal repression. For Faulkner, the woman becomes both a symbol of tragedy and resilience, a mirror of the human soul struggling against the transient values of society.

In conclusion, the representation of women in the works of Hemingway and Faulkner transcends gendered boundaries — it becomes a philosophical and aesthetic reflection of human nature, consciousness, and the moral condition of the age. Through their female characters, both authors explore the dialectic between freedom and responsibility, love and solitude, renewal and decay, thus turning the female motif into the spiritual and artistic axis of twentieth-century literary thought.

USED LITERATURE:

1. Hemingway, E. *The Sun Also Rises*. New York: Scribner, 1926.
2. Faulkner, W. *The Sound and the Fury*. New York: Random House, 1929.
3. Anderson, G. *The Lost Generation and Its Women Characters*. London: Routledge, 1992.
4. Donaldson, S. *William Faulkner and the Role of Women in His Fiction*. Oxford: Oxford University Press, 2001.
5. Abduvohidova, N. *Modern Literary Theory*. Tashkent: Fan Publishing, 2015.
6. Zakirov, Sh. *Introduction to Literary Studies*. Tashkent: University Press, 2018.

ISTAK MAZMUNIDAGI LISONIY BIRLIKLARNING KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Xoliqulova Shoxista,

30-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Samarqand, O'zbekiston

E-mail: shohistaxoliqulova71@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilida istak mazmunli aktlari ifodalanishining kognitiv-pragmatik va kommunikativ xususiyatlari, uning voqelanishi so'zlovchining maqsadi bilan bog'liqligi asoslangan. Muloqot maqsadi turli nutqiy aktlarni yuzaga chiqaruvchisi sifatida lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlarda ko'rib chiqilgan va istak aktini yuzaga chiqaruvchilari tahlilga tortilgan. Istak konseptining o'zbek tilidagi o'ziga xos verbal vositalarini konseptual metod asosida tadqiq qilish istiqbollari asoslangan.

Kalit so'zlar: konsept, nutqiy akt, propozitsiya, lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, pressupozitsiya, verbal vositalar, muloqot maqsadi.

Ma'lumki, kishilar til vositasida o'zaro aloqaga kirishar ekanlar, unda qo'llanilgan til birliklari vositasida tilning munosabat ifodalash, ta'sir qilish kabi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Kishilar til birliklaridan foydalanish bilan turli ruhiy holatlarni, quvonchu istaklari, orzu-umidlarini ifodalaydilar. Bu esa o'z navbatida tilda ma'lum istak mazmunidagi nutqiy ifodalarni - nutqiy aktlarni yuzaga keltiradi. Ana shunday nutqiy ifodalardan biri bo'lgan istak mazmunidagi aktlardir. Bunday ifodalar so'zlovchining adresatga ijobiy munosabati, undan minnatdorligi ifodasi sifatida yuzaga keladi. Istak konsepti o'zbek lingvistik bilimining eng muhim tushunchalaridan biri bo'lib, asosiy tilak, tabrik kabi nutqiy aktlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tili madaniyatida so'rashish, uzr so'rash, minnatdorlik bildirish, tabrik, muborakbod etish, xayrlashish, salomlashish, taziya bildirish, hamdardlik bildirish kabi ma'lum standart vaziyatlarda ijtimoiy guruh vakili sifatida tan olishini ifodalovchi istak aktlari mavjud. Ular sotsiativlar deb ham yuritiladi. [2] Ularga xos bo'lgan umumiy xususiyat – bu ifodalar semantik jihatdan ozbek tili lingvomadaniyatida barqarorlashib, aksariyati nutqiy etiketga aylanib ijobiy istak mazmuni anglashiladi.

Istak kontsepti mazmunining o'ziga xosligi va uni lingvistik ifodalash usullari, albatta, istak bildirishning kognitiv asoslari va uning kontseptual xususiyatlari bilan belgilanadi. Bir tomondan, istak konsepti strukturasiidagi mazmuniy o'zaro bog'liq lingvistik va nolingvistik vositalar qonuniyatlarini hamda turli lingvistik talqinlarni aniqlash va tushunish muhim ko'rinadi. Ikkinchidan, ushbu hodisaning kognitiv tabiati

va metallika ko'ra o'ziga xos farq qiluvchi jihatlarini, istak mazmunidagi lisoniy birliklarni kontseptuallashuvi va tasniflanish mexanizmlarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Shuni inobatga olish kerakki, til birliklari va kategoriyalari asosida singdirilgan mazmun nafaqat obyektiv voqelik haqidagi munosabatlarning o'zaro bog'liq jihatlarini, balki o'z ona tilida so'zlashuvchilarning ham o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Boshqa tomondan, V. Gumbolt tomonidan e'lon qilingan "borliq – til – inson" klassik uchligida birinchi o'ringa chiqadi: birinchidan til (shaxsi) olam manzarasining lisoniy tarjimoni, ikkinchidan til (shaxsi) me'moridir. Shuning uchun ham zamonaviy fan oldida o'zaro bog'liq murakkab konseptlarni o'rganishda inson omilining ahamiyati lisoniy tahlilning eng muhim sharti sifatida e'tirof etilishi bilan ajralib turishi bejiz emas. [3]

Ma'no bilan bog'liq holda, istak "subyektini biluvchi" deb tushunilgan lingvistik "men" ga murojaat qilmasdan, so'zlovchining gapning yaratuvchisi sifatidagi shaxsiga, ma'no tarjimoni sifatida qabul qiluvchining shaxsiyatiga murojaat qilishni anglatadi. Aytilganlarning ichida shaxsning xohish-istaklarini va ularning obyektivlashuvini tilda yetarli darajada ifodalab bo'lmaydi.

Aslida, har qanday muloqot jarayoni istak bilan boshlanadi: so'zlovchining ma'lumotni qabul qiluvchiga yetkazish istagi har qanday so'z uchun turtki bo'lib xizmat qiladi va aloqa harakatining asosini tashkil qiladi. Mohiyatan, istakni kommunikativ harakatning paydo bo'lishi va mavjud bo'lishining sharti sifatida ko'rib chiqish mumkin. Umuman olganda, muloqotda istak mazmuni ma'lum bir kommunikativ faoliyatda tegishli lingvistik dizayn(ko'rinish)ni oladi. So'zlovchi kimgadir biror narsa aytish istagini amalga oshiradi (kimdandir biror narsa haqida so'rash), rag'batlantirish orqali (kimnidir biror narsa qilishga undashni xohlaydi), lekin kerakli yoki optativ jumlar orqali (biror narsaga bo'lgan xohishini bildirishni xohlaydi). Boshqacha qilib aytganda, til shaxsining ma'lum bir ma'lumotni xabar, so'roq, buyruq yoki istak shaklida yetkazish istagi har qanday kommunikativ vaziyatning asosini tashkil etadi, axborot uchun turtki vazifasini bajaradi va muloqot jarayonining umumiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunday gaplar so'zlovchining istak-xohishini ifodalashga xizmat qiladi. Til sathida o'zining alohida modeli mavjudligi va nutqda konnotativ ma'no ma'lum axborot berish bilan birga, so'zlovchining pragmatik istagi, xohishining ifodalanishiga ega bo'ladi: Masalan:

– *Agar hayot bo'lganida edi, kaftimda ko'tarib yurardim, – keyingi kunlarda Safol odamlar orasiga qo'shildi deguncha u gapni takrorlaydigan bo'lib qolgandi. Shunday derdi-da, mahzun, horg'in, yoshlangan ko'zlarini oyog'i tagiga tikkancha o'zicha g'oldirardi. – Lekin qo'ldan ketdi... Eh, agar u bo'lganda... "Kim biladi?". Sovuq va shubha yaltillagan nigohlar Safolning ko'zlariga qadaladi. Qariya og'ir bir "oh"*

tortib, qoracha, dag'al barmoqlarini qaltirayotgan boshiga qo'yadi va hasratlangancha qayta-qayta deydi: – Qaniydi, tirilib kelsa... (Abdulhamid Samad. Qaniydi.)

Istak gaplar so'zlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida bo'lishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi. [1]

Shu bilan birga, istak tushunchasi gapning maxsus turi – optativ(istak)ning asosiy kontseptual mazmunini tashkil qiladi. Ularda tushuncha o'zining lingvistik ifodasini oladi: *“Topganing to'ylarga buyursin”* deya halol mehnat bilan topgan daromadlarini faqat yaxshi to'ylarga xizmat qilishini niyat qilinadi. *“Uvali-juvali bo'lg'in”, “serfarzand, serdavlat bolgin”, “o'zingdan ko'payib yurgin” va boshqalar.* Bu istak mazmunli lisoniy birliklarda o'zbek milliy madaniyatining eng asosiy jihatini ko'rish mumkin.

Istak mayl lingvistik kategoriyasining umumlashtirilgan mazmuni sifatida birinchi navbatda mos keladigan modal semantika, xohish-istak semantikasi bilan bog'liq. Istak bildirish subyektning keng ma'noda qandaydir harakatni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojining emotsional-ixtiyoriy ko'rinishi bo'lib, u muayyan vaziyatda u yoki bu lisoniy ifoda orqali namoyon bo'lishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Istakni keng ma'noda muloqot uchun omil sifatida va optativlik kategoriyaning asosini tashkil etuvchi kontsept sifatida farqlash kerak.

Kommunikativ harakatning umumiy sharti sifatida istak til tizimidan tashqarida, shaxsning mantiqiy-psixologik jarayonlari doirasida joylashadi, lekin ayni paytda u lingvistik va tildan tashqari voqelik, dunyo o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. O'zaro “Men” va “men emas” dunyosi.

Kognitiv-lingvistik tushuncha sifatida istakning semantik qobig'i kategoriyalashish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bizning ongimizda istak lingvistik-kotseptuallashuvning asosiy mazmuni - optativlikni tashkil qiladi. Anglashiladiki, birinchi navbatda, optativlikni o'ziga xos kategorial birlik sifatida ko'rib chiqish kerak, uning mazmun rejasi modal subyektning u yoki bu potentsial harakatga / holatga bo'lgan munosabati (universal kontseptual o'zgarmas / istalgan holat). Ushbu birlikni ifodalash rejasi sintaktik, morfologik, leksik, so'z yasaliş va prosodik vositalar majmuasi, shuningdek, optativ semantikani belgilovchi kontekst elementlari to'plamidir.

Ushbu vositalarni birlashtirgan maxsus lingvistik kategoriyani aniqlashning qonuniyligi, so'zlovchining kommunikativ niyatlaridan biri sifatida potentsial harakatning maqsadga muvofiqligining kontseptual mazmunini ifodalash uchun nutqdagi o'zaro ta'sir holati bilan belgilanadi.

Istak konsepti umumiy kommunikativ va lisoniy hodisa hisoblanadi. Bu barcha etnik guruhlar uchun akt va shaxslararo munosabatlarni saqlash va rivojlantirishning muhim vositasi. Odamlar bir-birlarini maktublar, SMS-xabarlar bilan tabriklaydilar va o‘zlarining yaxshi tilaklarini bildiradilar. Bu istaklar, bir tomondan, odamlarning his-tuyg‘ularini yetkazishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, buni o‘rnatilgan odob-axloq an‘analari doirasida amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Базарова М. Ўзбек тилида ижобий истак мазмунини ифодаловчи нутқий бирликларнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари номз. Дисс.автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 4.
2. Пардаев З., Холиқулова Ш. Экспрессив нутқий актлар ва баҳо муносабати. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11 | Issue-6 | 2023.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент: ЎМЭ..2008. -Б.72-73.

INDIVIDUAL-MUALLIFLIK OKKAZIONAL FRAZEOLOGIZMLARNI YUZAGA KELISH OMILLARI

Qilichboyeva Xurshida,

Mustaqil izlanuvchi Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Chirchiq,
O‘zbekiston,

Annotatsiya: Mazkur maqola individual-mualliflik okkazonal frazeologizmlarni yuzaga kelish omillari tahliliga bag‘ishlangan. Frazeologizmlar lingvopragmatikasni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Frazeologizmlar sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator zamonaviy soha mutaxassislarining tadqiqotlarida asosiy mavzulardan biri. Muloqot jarayonida obrazli-ekspressiv frazeologizmlarning namoyon bo‘lishi, so‘zlovchining adresat bilan emotsional munosabati kabi masalalarni o‘rganish uchun ham muhim va dolzarb hisoblanadi. O‘zbek badiiy matnida baho ifodalovchi frazeologik birliklarning turli sharoitlarda, muayyan tamoyillar asosida, har xil vaziyatlarda turli maqsadlar bilan semantik, pragmatik xususiyatlari o‘rganilgan.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, okkazonal, kontaminatsiya, frazeologizm, nutq vaziyati, komparativ frazeologizm, denotativ ma’no, konnotativ ma’no.

Okkazonal frazeologizmlar (OF) – tilning odatiy frazeologik tizimi doirasidan chiqib, muallif tomonidan muayyan maqsadda, kommunikativ vaziyatga mos holda yaratilgan yangi, badiiy ifoda vositalaridir. Ularning shakllanishi tasodifiy emas, chunki, asosiy harakatlantiruvchi kuch muallifning ijodiy niyatidir. Har qanday nutq subyektning (muallifning) maqsadidan boshlanadi. Nutqni tashkil etar ekan, muallif, bir tomondan, o‘z fikrlarini aniq va to‘liq ifoda etishni, ikkinchi tomondan esa, eshutilishni va to‘g‘ri tushunilishni ko‘zlaydi. Bunday kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda muhim omillardan biri – bu fikr bayoni uchun so‘zlar va frazeologik birliklarni tanlashdir.

Muallif muloqot jarayonida (nutqda, diskurs yoki matnda) muayyan frazeologik birlikmani tanlar ekan, u avvalo nutq vaziyatini hisobga oladi hamda tanlangan frazeologik birlikning mazkur vaziyatda o‘z fikrini ifodalash uchun mos va adekvat bo‘la olish imkoniyatini baholaydi. Frazeologik belgining o‘ziga xos jihati shundaki, u ko‘proq biror narsa yoki hodisani nomlamaydi, balki uning xossalari, sifatlari, belgilarini tavsiflaydi. So‘zlovchining ichki kechinmalarini ifodalovchi va tinglovchining hissiyotlariga ta’sir qiluvchi mazmun ham aynan shu holat bilan belgilanishi mumkin.

Frazeologik birliklar orqali muallif o'zining dunyoga munosabatini bildiradi. Frazeologik birliklar murakkab belgilar sifatida obrazli vaziyatlarga (freym, ssenariy) asoslanadi va shu obrazlar orqali metaforik ko'chirish orqali muallif frazeologik obrazli-virtual vaziyat bilan real nutqiy vaziyatni qiyoslaydi. Agar til frazeologizmining semantikasi, baholovchanligi, ekspressivligi, stilistik bo'yoqlari va obrazli yuki muayyan nutqiy vaziyatda muallif intensiyalariga mos kelsa, u holda bu frazeologizm nutqda ishlatiladi va o'z vazifasini to'liq bajaradi.

Muayyan frazeologik birikmani nutqda ishlatish uchun tanlash jarayonida asosiy boshlang'ich nuqta bu – muallifning kommunikativ niyatlari (intensiyalari) hisoblanadi. Bunda muallif frazeologik belgining murakkabligi va uning bir vaqtning o'zida bir nechta: belgi yoki predmetni nomlash, tinglovchiga emotsional ta'sir o'tkazish, mazkur narsa yoki shaxsga baho berish, frazeologik obraz orqali taassurot uyg'otish kabi vazifalarni bajara olish imkoniyatini inobatga oladi. Aynan shu funksional ko'p o'lchamli (multifunksional) xususiyati tufayli frazeologizmlar muallif intensiyalarini kompleks xususiyatlar asosida amalga oshira oladi.

Lisoniy frazeologizmlar (LF) va okkazional frazeologizmlarni (OF) ishlatishda muallif niyatlarida o'xshashliklar ham, farqlar ham mavjud. Ularning o'xshash tomoni shundaki, har ikki turdagi frazeologizm ifoda vositasi sifatida kuchli semantik va stilistik imkoniyatlarga ega bo'lib, muallif g'oyalarini yetkazishda samarali xizmat qiladi. Ammo ularning farqli jihati shundaki, okkazional variantlar yoki yangi okkazional frazeologizmlar faqat shunday holatlarda yuzaga keladiki, unda mavjud til frazeologizmi muallif intensiyalariga to'liq javob bera olmaydi, ya'ni muallifni semantika, baholovchanlik, emotsionallik yoki stilistik jihatdan qoniqtirmaydi. Biroq u boshqa leksik vositalarga nisbatan baribir afzal sanaladi. Shunday holatda muallif mavjud frazeologik birikmani ijodiy o'zgartirish (transformatsiya qilish) yo'li bilan qayta ishlaydi. Bu transformatsiya quyidagi maqsadlarni ko'zlashi mumkin: frazeologik birikma ma'nosini o'zgartirish; uning ma'nosini ochib berish yoki aniqroq ifodalash; emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish; baholovchanlik yoki stilistik bo'yoqni o'zgartirish; obrazni qisman yoki to'liq yangilash. Frazeologizmlar ko'p vazifali bo'lganligi sababli (masalan, emotsional, baholovchi, obrazli va madaniy vazifalar), ular: ma'no jihatdan boy, tasviriy qudratga ega, stilistik jihatdan kuchli vosita sifatida muallifga kerakli ta'sirni yaratish imkonini beradi. Demak, aytish mumkinki, frazeologizm – bu shunchaki ibora emas, balki muallif fikrini chuqur, obrazli va emotsional yetkazish uchun qulay vosita. Bundan tashqari, muallifning nutqni ixchamlashtirish, til o'yini orqali stilistik effektga erishish, matnni poetiklashtirish kabi ijodiy maqsadlari ham frazeologik transformatsiya qilish uchun

sabab bo'lishi mumkin. Endi FB'larni struktur-semantik o'zgartirish usullariga e'tiborimizni qaratamiz:

1. FB komponentini almashtirish usuli. Bu frazeologik birlik (FB) tarkibidagi biror leksik komponentni boshqa unga sinonim so'z bilan almashtirish orqali uning ma'nosini, uslubiy ma'no nozikliklarini, ifoda effektini o'zgartirish usulidir. Bu haqda B.Yo'ldoshev: "Frazema gap tarkibida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishar ekan, ba'zan aniqlik kiritishni, konkret shart-sharoitga moslashishni talab qiladi. Ana shunday holatlarda ibora komponentlaridan biri boshqa so'z bilan almashtiriladi. Bunday almashtirish agar uslubiy jihatdan asoslangan bo'lsa, uning ta'sirchanligi yanada oshadi"[1], degan fikr aytadi. Anglashiladiki, bu usul nima uchun qo'llaniladi? degan savolga muallifning maqsadi frazeologizmga yangi pragmatik ma'no yuklash, so'z o'yini yaratish, ironiya yoki yumor vositasi sifatida, individual mualliflik uslubini ifodalash, kontekstga moslashtirish yoki aktuallashtirish kabi vazifalar bo'lishi mumkin.

2. FB komponent tarkibini kengaytirish usuli. Ibora tarkibiga oddiy qo'llanishdagi so'zni qo'shish bilan ijodiy-individual kengaytiriladi. Bunda tarkibiga semantik va grammatik jihatdan bog'liq bo'lgan yangi daetallarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Natijada iboraning an'anaviy komponent tarkibi kengayadi, farazema semantikasida siljish yuz beradi, stilistik ekspressiv-emotsional jilosi kuchayadi. Bu usuldan, ayniqsa, o'ziga xos okkazional FB'larni yaratishda faol foydalaniladi:

3. Zevgma usuli – bu ГЫГД so'zni bir kommunikativ vaziyatda ikki ma'noda qo'llash asosida mualliflik stilistik kombinatsiyadir. Uning asosida sintaktik vositalar tejamkorligi yotadi, ya'ni tayanch so'z asosida shakllangan ikki so'z birikmasi shaklan uyushiq, mantiqan turlicha komponentli yaxlit sintaktik strukturaga birlashadi. Bu hodisa mumtoz adabiyotda iyhom san'ati, deb ham yuritiladi [2]. Shu asosda frazemadan foydalanishning bu usulni individual-mualliflik, ya'ni kreativ frazeologik iyhom usuli, deb aytish mumkin.

4. Erkin qo'llanishdagi so'zni frazemaning qismi bilan biriktirish usuli. Bu usul dialogik matnlarda, ikki replika, ya'ni adresant va adresat o'rtasida yuzaga keladi. Bunda adresant qo'llagan frazeologizm tarkibidagi so'zni adresat o'zicha tushunadi. Sh.Boshbekovning "Temir xotin" komediyasidan olingan parchada shu holat yuzaga kelgan: *Qumri (achinib). Yecholmayman dadasi, mendan xafa bo'lmang... Qishloqning oqsoqollari tushlik paytida kelamiz, bo'lmasa dumini ushlatmaydi, deb ketishdi. Ko'chqor. Nima, mening dumimni ushlashdan boshqa ishi yo'q ekanmi? Kap-katta odamlar-a*» (Sh. Boshbekov. Temir xotin).

Yuqoridagi matnda Qumri qishloq oqsoqollarining fikrini Qo'chqorga yetkazib, "dumini ushlatmaslik" iborasini qo'llaydi, Qo'chqor esa o'z replikasida bu iboradagi "dum" ni o'zicha tushunadi. Endi quyidagi misolga e'tibor qarataylik: *O'zing qaysi qishloqdan bo'lasan? – Uchqo'rg'ondan, - dedim ensam qotib. - Shunaqa degin, bolam, men uchramaganimda onangni Uchqo'rg'ondan ko'rar ekansan* (G'.G'ulom. Shum bola). Bu misoldagi birinchi gapda **Uchqo'rg'ondan** so'zi o'z ma'nosida, ya'ni joy nomini bildirgan, ikkinchi suhbatdosh esa ibora (*uchqo'rg'onda ko'rar ekansan*) sifatida qo'llagan.

Frazemalar tarkibini qisqartirish usuli. Bu usul fikrni tezroq yetkazish maqsadida nutqda avvaldan ma'lum bo'lib kelgan frazeologizm komponentlarini qisqartirish hisobiga sodir bo'ladi. Masalan, "dami ichiga tushdi - dami ichida", "gapi gapiga qovushmadi - gapi qovushmadi", "joni ko'ziga ko'rinmadi - joni ko'rinmadi" singari iboralarning qisqargan variantlari nutqiy qisqaruv natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning okkazional (ya'ni, muayyan vaziyatga xos) o'zgartirilish usullari ma'lum oppozitsiyalarni (qarama-qarshi juftliklarni) hosil qiladi, bu esa ularning tizimligini namoyon etadi. Frazeologik birliklarning okkazional o'zgartirilish usullari til hodisasi hisoblanadi va ular til egalari tomonidan frazeologizmlarning mazmuni va shaklini o'zgartirish vositasi sifatida, tilning uzoq vaqt davomida mavjud bo'lishi va rivojlanishi jarayonida qo'llaniladi. Badiiy matnlarda okkazional birliklardan foydalanish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Bular yuzasidan kengroq kuzatishlar olib borish mazkur hodisa mohiyatini ochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.- Самарқанд. 1999, -Б. 168.
2. Умаров Э.А. Приём ийхом в произведениях Алишера Навои. -Тошкент, 1971. -С. 76-81

ДИНАМИЧЕСКОЕ НАБЛЮДЕНИЯ ВЫЯВЛЕНИЯ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ НА РАННИХ СТАДИЯХ.

Соткинова Н.А.

Хасанов А.И.

Каримов О.М.

РСНПМЦОиР Ферганский филиал, Узбекистан

Аннотация.

В статье обсуждается динамика выявления рака молочной железы в Ферганской области на ранних стадиях. В данной научной работе был проведен ретроспективный анализ 3043 пациентов с первичным заболеванием рака молочной железы, зарегистрированных в Ферганской области. Выявление рака молочной железы на ранней стадии увеличивался в динамике, если в 2016 году выявление больных раком молочной железы на ранней стадии составляло 72,9%, то к 2023 году этот показатель увеличился до 75%, что связано с проведением профилактических мероприятий - скрининга по ранней диагностике рака молочной железы.

Ключевые слова. Рак молочной железы, выявляемость рака молочной железы, эпидемиология рака молочной железы.

Xulosa.

Maqolada Farg'ona viloyatida ko'krak bezi saratonini erta bosqichda aniqlash dinamikasi muhokama qilinadi. Ushbu ilmiy ishda Farg'ona viloyatida ro'yxatga olingan ko'krak bezi saratonini bilan kasallangan 3043 nafar bemorning retrospektiv tahlili o'tkazildi. Ko'krak bezi saratonini erta bosqichda aniqlash dinamikada oshdi, agar 2016 yilda ko'krak bezi saratonini bilan og'rigan bemorlarni erta bosqichda aniqlash 72,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 75% gacha oshdi, bu profilaktika choralari bilan bog'liq - ko'krak bezi saratonini erta tashxislash uchun skrining.

Kalit so'zlar. Ko'krak bezi saratonini, ko'krak bezi saratonini aniqlash, ko'krak bezi saratonini epidemiologiyasi.

Annotation.

The article discusses the dynamics of breast cancer detection in the Ferghana region in the early stages. In this scientific work, a retrospective analysis of 3,043 patients

with primary breast cancer registered in the Ferghana region was conducted. The detection of breast cancer at an early stage increased in dynamics, if in 2016 the detection of breast cancer patients at an early stage was 72.9%, then by 2023 this figure increased to 75%, which is associated with the implementation of preventive measures - screening for early diagnosis of breast cancer.

Keywords. Breast cancer, breast cancer detection, breast cancer epidemiology.

Актуальность. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) в 2022 г. рак молочной железы (РМЖ) стал причиной 670 000 случаев смерти. Порядка половины всех случаев рака молочной железы приходится на женщин, не подвергающихся воздействию каких-либо специфических факторов риска за исключением пола и возраста. В 2022 г. рак молочной железы был самым распространенным видом рака у женщин в 157 из 185 стран (1).

Ежегодно в мире, по нашим расчетам, раком молочной железы заболевает более 2 млн. человек (10-18% от всех злокачественных новообразований). По данным последнего издания МАИР «Рак на пяти континентах» т. X, IARC Scientific Publication №164 максимальный стандартизованный показатель отмечен более 100 0/0000 в Бельгии, Италии и Франции. Минимальный (менее 40 0/0000)- на Кубе, в Турции и Украине. Учитывая постоянный рост в мире первичных случаев РМЖ, находящихся в структуре онкологической патологии на первом месте, одной из основных задач противораковой борьбы становится массовое периодическое обследование здорового населения с целью выявления скрыто протекающего онкологического заболевания в той стадии, когда они могут быть полностью излечены (2).

В структуре заболеваемости злокачественными новообразованиями по всем локализациям в мире рак молочной железы (РМЖ) занимает лидирующее место. Ежегодные темпы прироста заболеваемости РМЖ в мире составляют 3,1% РМЖ является одной из основных причин смерти женщин в возрасте старше 40 лет.

РМЖ, диагностированный на ранних стадиях, характеризуется благоприятным прогнозом и высокими показателями безрецидивной и общей выживаемости: при I стадии пятилетний срок переживают 95-100% больных, при IV - 10-22% (American Cancer Society, 2013) (3).

Ekoturizm uchta asosiy mezonni o'z ichiga oladi. Asosiy sayyohlarni jalb qiluvchi joylar tabiiy (masalan, flora, fauna, geologik xususiyatlar) bo'lib quyidagi tarkibi madaniy muhitning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Resurslarni o'rganish va tushunishga qaratilgan bo'lib, sayyohlar va boshqa tashrif buyuradigan hudud, jismoniy va madaniy muhitga yumshoq ta'sir ko'rsatadi. Ekoturizm tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda ekoturizm zonalariga tashrif buyuradigan sayyohlar soni dunyoda yildan-yilga oshib bormoqda. Sayyohlar hashamatli binolar va antiqa shaharlar o'rnida tabiiy muhitni, tabiatni ko'rishga intilishmoqda. Sayyohlar ekoturizm zonalarini qulay bo'lgan Laos, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kosta-Rika, Nepal, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika Respublikasidagi tabiiy muhitga (landshaft) bo'lganligi jalb qilmoqda. Yevropa va AQSHning rivojlanayotgan mamalakatlariga ekoturistlar dunyo bo'yicha eng ko'p sayohat qilishadi. Ekoturizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ekspertlarning fikricha dunyoda ekoturizmning jadal o'sish sur'atlari so'nggi 20-30 yil ichida yuqori darajada rivojlandi.[3, B.104]

BMT 2002-yilni “**Xalqaro ekoturizm**” yili deb e'lon qildi. Hozirga kelib ekoturizm xalqaro hamjamiyatda sayyoramiz tabiatini saqlab qolish va uni muhofaza qilishga bag'ishlangan tadqiqotlari xalqaro miqyosda kuchayib bordi. Ushbu yo'nalishda birgina 1999-yilda 400 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro miqyosda tan olingan nashriyotlarda chop etildi. 2001-yil Rossiyada ekoturizm assotsiatsiyasi tashkil etildi. Ekoturizmning regional miqyosda turizmni dasturiy asos sifatida rivojlangan davri 1990-2000 yillarni o'z ichiga oladi. XX asr 90-yillarining boshlarida “**ekoturizm**” xalqaro mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega bo'ldi. Ayni shu yillar Yevropada xalqaro ekoturizm ittifoqi ish boshladi.[4, B.106]

Rivojlanib borayotgan mamlakatning turizmni industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba oshib ketgan.[5]

Mamlakatimizning sayyohlik imkoniyatlari juda xilma-xil va boy: bu Ugam-Chotqol milliy bog'i, Amudaryo deltasidagi to'qay o'rmonlari, yaqinda sayyohlar uchun ochilgan, sayyoramizda hayot paydo bo'lganidan dalolat beradigan Kitob qo'riqxonasi, Orol dengizi yaqinidagi “ekologik ofat” mintaqasi, dasht va Qizilqum cho'llari, Nurota tog'lari, Aydarko'l ko'li va tabiatimizning boshqa ko'plab ajoyibotlari.(6, B.29)

Adabiyotlarda keltirib o'tilganki ekoturizm “yashil”, “xlorofill”, “landshaft”, “tabiiy turizm” iboralari bilan ham tilga olinadi. Mutaxassislar tahliliga ko'ra, ekoturizmning hududiy farqlari ham ularning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini belgilaydi.[7, B.172]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekoturizm-zamonaviy turizmning barqaror, ekologik jihatdan mas'uliyatli shaklidir. U tabiiy muhitni asrash, mahalliy aholining turmush darajasini oshirish, hamda sayyohlar ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Dunyoda ekoturizmga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda va u turizm industriyasining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston esa o'zining tabiiy zaxiralari, muhofaza etilgan hududlari va boy biologik xilma-xilligi bilan bu yo'nalishda katta salohiyatga ega. Shu sababli, ekoturizmni rivojlantirish orqali mamlakatimiz nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlashi, balki iqtisodiy jihatdan ham yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Ekoturizm zamonaviy turizmning barqaror va ekologik jihatdan mas'uliyatli shakli bo'lib, u nafaqat tabiatni asrashga, balki mahalliy oilalarning turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Ekoturizm oilalarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirib, ularni ijtimoiy faol hayotga jalb etadi. O'zbekistonda mavjud tabiiy va madaniy zaxiralar ushbu turizm yo'nalishini yanada rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shunday ekan, ekoturizmni qo'llab-quvvatlash orqali biz nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekologik_turizm
2. Azimov M. Ekoturizm: Tabiat va Turizmning uyg'unlikda rivojlanishi. "Экономика и социум" №8(123) 2024, B.256
3. Jabborova M. Ekoturizm tushunchasining kelib chiqish tarixi va ta'rifi. "Экономика и социум" №8(123) 2024, B.104
4. Jabborova M. Ekoturizm tushunchasining kelib chiqish tarixi va ta'rifi. "Экономика и социум" №8(123) 2024, B.106
5. <https://uzbekistan.travel/uz/v/ekoturizm/>
6. Hamidov O., Norchayev A., Ekoturizm. Toshkent, B.29
7. Xasanova N, Xalilova M. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish orqali mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish. International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 16, May. 2024, B.172

TERMINOLOGIYADA OMONIMLIK VA POLISEMIYA MUNOSABATI

Qarshiboyeva Yulduz Baxtiyor qizi

Mirzaobod tumani 35-maktab o'qituvchisi

yulduzqarshiboyeva0728@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminologiya tizimida omonimlik va polisemiya hodisalari o'rtasidagi o'zaro munosabat lingvistik hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Polisemiya – bir leksik birlikning ma'nolar jihatidan yaqin ko'pma'noliligi, omonimiya esa shakl birligi asosida mustaqil ma'nolar mavjud bo'lishi sifatida yoritiladi. Fanlararo terminologik tizimlarda ushbu hodisalar o'rtasidagi chegaralarni belgilash zarurligi asoslab beriladi. Shu bilan birga, terminlarning kelib chiqish manbalari, sohaviy differentsiallasuvi, kontekst ta'siri va normativ lug'atlarda berilishi mezonlari asosida omonim terminlar va polisemik terminlarni farqlash usullari ko'rsatib o'tiladi. Maqolada tarjimashunoslik, leksikografiya va axborot texnologiyalari doirasida ushbu ikki hodisaning amaliy ahamiyati ochib berilgan bo'lib, terminologik tizimni takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: omonimlik, polisemiya, terminologiya, leksik-semantik jarayon, kontekst, normativ lug'at, sohaviy differentsiallasuv, tarjimashunoslik, fanlararo terminlar

Аннотация: В статье рассматриваются взаимосвязь и различия между омонимией и полисемией в терминологической системе узбекского языка. Полисемия трактуется как многозначность одной лексической единицы, а омонимия — как наличие нескольких самостоятельных значений при одинаковой форме. Особое внимание уделено необходимости точного разграничения этих явлений в научной и технической коммуникации, где термин должен выражать строго одно определённое понятие. Анализ осуществляется на основе семантических, этимологических, системных и контекстуальных критериев. Показана практическая значимость дифференциации омонимичных и полисемичных терминов для перевода, лексикографии и цифровых лингвистических технологий. В работе представлены выводы, направленные на совершенствование терминологического нормирования и повышение точности междисциплинарного общения.

Ключевые слова: омонимия, полисемия, терминология, лексико-семантический процесс, контекст, нормативная лексикография, междисциплинарные термины, переводоведение

Abstract: This article examines the relationship and distinctions between homonymy and polysemy within the terminology system of the Uzbek language. Polysemy is defined as the presence of multiple related meanings within a single lexical unit, whereas homonymy is characterized by identical forms assigned to completely independent meanings. The study highlights the importance of accurately differentiating these phenomena in scientific and technical communication, where each term must convey one clearly defined concept. The analysis employs semantic, etymological, systemic, and contextual criteria. Practical implications for translation studies, lexicography, and digital linguistic technologies are discussed. The findings underline the need for proper terminology standardization to ensure clarity and efficiency in interdisciplinary scientific discourse.

Keywords: homonymy, polysemy, terminology, lexical-semantic process, context, terminological standardization, interdisciplinary terms, translation studies

Tilshunoslikda omonimlik va polisemiya ko‘pincha bir-biriga yaqin va ba’zida chalkash tushuniladigan leksik-semantik hodisalar sirasiga kiradi. Xususan, terminologiyada bu ikki hodisa orasidagi farqlarni aniqlashtirish, ularning o‘ziga xosliklarini belgilash va taqqoslash ilmiy tahlil uchun muhim masaladir.

Polisemiya – bu bir so‘zning ko‘p ma’noliligi, ya’ni u grammatik yoki semantik jihatdan bir birlik sifatida turli kontekstlarda bir-biriga yaqin, lekin farqlanuvchi ma’nolarni bildiradi. **Omonimiya** esa, buning aksincha, shaklan bir xil, lekin mutlaqo boshqa ma’noga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq mustaqil birliklarning mavjudligidir. Shunday qilib, polisemiya semantik yaqinlikka, omonimiya esa semantik mustaqillikka asoslanadi.

Terminologiyada esa ushbu ikki hodisa orasidagi chegaralarni aniq belgilash zarur. Chunki ilmiy va texnik matnlarda har bir atama faqat bitta aniqlangan ma’noni ifodalashi lozim. **Atamaning ko‘pma’noliligi (polisemiyasi)** ilmiy aniqlikni susaytiradi, **omonimlik esa** bir so‘zning turli fan sohalarida o‘ziga xos tushunchani ifodalashiga olib keladi. Misol uchun:

“energiya” termini fizikada – mexanik, issiqlik, elektr energiyasini bildirsa, biologiyada – hayotiy faoliyat manbai sifatida ishlatiladi. Bu holat omonimiyaga yaqinlashuvchi polisemiya sifatida talqin qilinadi.

“modul” so‘zi matematikada – son qiymatini bildiradi, me’morchilikda – qurilish o‘lchovi, pedagogikada – o‘quv tarkibiy qismi. Bu esa klassik omonimiya misolidir.

Bu jihatdan qaraganda, **terminologiyada omonimlik va polisemiya ko‘proq “funktional-semantik” chegaralarda** bir-biridan ajratiladi. Ya’ni, agar bitta termin turli kontekstlarda turlicha, lekin yaqin tushunchani bildirsa – bu polisemiyadir. Ammo

bir termin butunlay boshqa ilmiy sohaga mansub turli tushunchalarni bildirsa – bu omonimlikdir.

Tilshunoslar bu ikki hodisa orasida quyidagi mezonlar orqali farqlash taklif qiladilar:

Etimologik mezon – agar bir necha ma’no umumiy etimologik ildizga ega bo’lsa, bu polisemiya. Aksincha, farqli kelib chiqishga ega bo’lsa – bu omonimiyadir.

Semantik yaqinlik mezoni – ma’nolar orasida semantik bog‘liqlik bo’lsa, polisemiya, agar umuman bog‘liqlik bo’lmasa – omonimiya.

Sistemaviy birlik mezoni – lug‘atlarda so‘zning barcha ma’nolari bitta birlik ostida keltirilsa – polisemiya, alohida keltirilsa – omonimiya.

Terminologiyada bu mezonlarga qo‘shimcha ravishda **sohalararo kontekst mezoni** ham kiritiladi. Bu degani, bir termin turli fan tarmoqlarida ishlatilganda, ularning kontekstual tavsifi, izohlanishi va metodologik yondashuvi e’tiborga olinadi. Shu jihatdan olganda, **polisemiya hodisasi ko‘proq umumtil birliklarida ko‘rilsa, omonimiya esa aynan terminologiyada keng tarqalgan hodisadir.**

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ayrim sohalarda atamalarni yaratishda polisemik birliklar termin sifatida olinadi va sohashtiriladi. Bu holat **sun’iy omonimiyaga** olib keladi. Masalan, “potensial” so‘zi fizikada – kuchlanish imkoniyati, ijtimoiy fanlarda – intilish yoki salohiyat ma’nosida qo‘llanadi. Bu yerda semantik yaqinlik mavjud bo’lsa-da, ilmiy doirada ularni farqlash zarurati bor.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, omonim terminlar va polisemik terminlar tarjimada turlicha yondashuvni talab qiladi. Agar polisemik atama tarjima qilinayotgan matn kontekstida yaqqol semantik maydonga ega bo’lsa, u aniq tarjima qilinadi. Ammo omonim terminlar uchun kontekst yetarli bo’lmaganda, tarjima xatolarga olib kelishi mumkin.

Terminologik tizimda omonimlik va polisemiya hodisalarini ajratib tahlil qilish, bir qarashda nazariy masala bo’lib tuyulsa-da, amalda u ilmiy-texnikaviy sohalar, tarjima amaliyoti, ta’lim tizimi va davlat til siyosatida dolzarb muammo sifatida namoyon bo’lmoqda. Zero, har bir fan sohasi o‘zining maxsus leksik tizimiga ega bo’lib, u aniq, izchil va tushunarli atamalar vositasida quriladi. Shu bois, har qanday ma’no ikkiyoqlamaligi yoki xatolik xavfini tug‘diruvchi birliklar bu sohalarda aniqlikni buzadi, ilmiy ifodaning mantiqiy va funksional samaradorligiga putur yetkazadi.

Bundan tashqari, omonim terminlar va polisemik terminlar o‘rtasidagi chegarani noaniq belgilash, ayniqsa **fanlararo tadqiqotlarda va zamonaviy interaktiv texnologiyalarga asoslangan axborot bazalarida** murakkablik tug‘diradi. Misol uchun, bir fan sohasida “massa” atamasi fizik mazmunga ega bo’lsa, boshqa bir sohada u ijtimoiy guruhlar to‘plami ma’nosini anglatadi. Elektron lug‘atlarda yoki ilmiy maqolalarda bu ikki holat tafovutini aniq ifodalash uchun **terminologik atributlar**, ya’ni sohaviy belgilar, kontekstual izohlar, qisqartmalar, ko‘rsatkichlar kerak bo’ladi.

Aks holda, avtomatik tarjima tizimlari yoki intellektual qidiruv mexanizmlari noto'g'ri natija chiqarishi mumkin.

Shu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, terminologiyada polisemiya ko'p hollarda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U aksincha, **terminning umumxalq tilidan kirib kelishi**, ya'ni avvalgi ma'lum bir asosiy ma'noning ilmiy maydonda funksional kengayishi natijasida yuzaga keladi. Bu holatda terminologik birlik umumiy lug'aviy qatlamdan farq qilmaydi, lekin fan doirasida o'ziga xos terminologik yuklamaga ega bo'ladi. Masalan, "daraja" so'zi:

umumiy tilda: qiyalik yoki miqdor o'lchovi sifatida,

matematikada: sonning darajasi,

ijtimoiy tilda: lavozim darajasi,

pedagogikada: bilim darajasi,

geologiyada: yer sathining darajasi kabi ishlatiladi.

Ushbu ko'rinishda so'z birinchi navbatda **polisemik birlik** sifatida namoyon bo'ladi. Ammo agar u turli fan sohalarida mustaqil termin sifatida shakllansa va har biri o'z sohasida aniqlik bilan belgilansa, u holda **funksional omonimlikka aylanadi**. Shunday qilib, terminologik tizimda omonimlik va polisemiya orasidagi chegaralar ko'pincha har bir atamaning **sohaviy maqomi, semantik yuklamasi va kommunikativ kontekstiga** qarab belgilanadi.

Bu munosabatni aniq tahlil qilish uchun **qiyosiy-lingvistik yondashuv** samarali metod hisoblanadi. Jumladan, o'zbek, rus, ingliz va boshqa tillardagi terminlar o'rtasidagi omonimlik va polisemiya holatlari solishtirilganda, ularning shakl va mazmun jihatdan yaqinligi ko'rinadi, ammo milliy til tizimiga kirgach, ular yangi ma'no yukini oladi. Bu esa tarjimashunoslik, leksikografiya va terminografiya uchun muhim ilmiy vazifalarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, terminologik birliklar tizimida omonimlik va polisemiya masalalarini alohida-alohida emas, balki **kompleks holda** o'rganish, ularning fanlararo va kontekstual tafovutlarini aniqlash, ayniqsa zamonaviy tilshunoslikda, o'zbek tili uchun dolzarb hisoblanadi. Bu borada terminlarni **tasniflash, normallashtirish, kodlash va elektron formatda taqdim etish** ishlariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda "terminologik maqom", "semantik interfeys", "interdisciplinary lexicon" kabi tushunchalar asosida yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ushbu tendensiyalar o'zbek terminologik ilmiy maktabi oldiga ham yangicha nazariy va amaliy vazifalarni qo'yimoqda.

Terminologik tizimda omonimlik va polisemiya hodisalarining o'zaro munosabatini tahlil qilishda shuni ham inobatga olish lozimki, ko'plab atamalar avval umumiy til birliklari sifatida mavjud bo'lgan va faqat keyinchalik ma'lum fan sohasi ehtiyoji bilan **maxsus termin maqomini olgan**. Bu jarayon esa, aksariyat hollarda, aynan

polisemiya orqali amalga oshadi. Umumtil soʻzining ilmiy maʼno yukiga ega boʻlishi va fanga xos tushunchani ifodalashga xizmat qilishi natijasida terminologik koʻpmaʼnolilik vujudga keladi. Vaqt oʻtishi bilan esa bu birlik boshqa sohada mutlaqo yangi maʼno kasb etib, mustaqil termin sifatida shakllanadi. Shunday hollarda polisemik birlik omonim termin bilan chegaralanadi.

Bu holat, xususan, **pedagogika, informatika, iqtisodiyot, biologiya va ijtimoiy fanlarda** yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan:

“platforma” soʻzi transport tizimida – poyezd maydonchasi, axborot texnologiyalarida – dasturiy asos, siyosiy terminologiyada esa – mafkuraviy yoʻnalishlar majmui sifatida qoʻllaniladi.

“aktiv” atamasi iqtisodda – muayyan mulk turi, psixologiyada – faol, ijtimoiyda – ilgʻor aʼzo kabi maʼnolarda ishlatiladi.

Bu kabi terminlar shaklan bir xil boʻlsa-da, har biri oʻz sohasida toʻliq mustaqil semantik tizimga ega boʻlib, ular orasidagi aloqadorlik yaqinlashuvchi emas, balki faqat tashqi shaklning oʻxshashligidadir. Shu sababli, bunday holatlarda biz **funksional omonimiya** haqida soʻz yuritamiz.

Tilshunos olimlar (Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojdiyev, N.Zohidov, A.Mamayusupov va boshqalar) oʻz tadqiqotlarida ushbu ikki hodisani aniqlashtirish uchun **tavsifiy, taqqosloviy, distributiv, kontekstual va transformatsion** usullardan foydalanganlar. Ularning fikricha, terminologik birliklarning polisemik yoki omonimikligini aniqlash uchun quyidagi shartlar birgalikda tahlil qilinishi zarur:

Kontekstual aniqlik – termin har bir qoʻllanish holatida oʻz sohasiga oid aniq tushunchani ifodalashi lozim;

Maʼno mustaqilligi – agar ikki yoki undan ortiq maʼno orasida bogʻliqlik yoʻq boʻlsa, ular omonim hisoblanadi;

Sistemaviy yondashuv – terminlar har bir fan tarmogʻidagi terminologik tizim doirasida baholanadi;

Normativ lugʻatlarda joylashuvi – omonim va polisemik birliklar rasmiy izohli va terminologik lugʻatlardagi taqdimotiga qarab ham ajratiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oʻzbek tilshunosligi va terminologiya fanida ham bu ikki hodisani oʻrganish orqali **terminologik birliklarning semantik chegarasini aniqlashtirish, atamalar tizimini mukammallashtirish, fanlararo terminlar ziddiyatini bartaraf etish, kompyuter lingvistikasi va tarjima tizimlarining aniqligini oshirish** kabi vazifalarni hal qilish mumkin.

Ayniqsa, elektron lugʻatlar, korpus lingvistikasi, sunʼiy intellekt asosidagi tarjima vositalari keng qoʻllanilayotgan hozirgi davrda terminologik omonimlik va polisemiya oʻrtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilish **amaliy tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri** hisoblanadi. Ularning ilmiy tahlili orqali nafaqat tilning nazariy

imkoniyatlari kengayadi, balki terminologik adabiyotlar sifati ham yuqori darajaga ko'tariladi.

Shunday qilib, terminologiyada omonimlik va polisemiya – bu faqatgina leksik hodisalar emas, balki ularning tagida yotgan **konseptual tafovutlar, mantiqiy kategoriya farqlari, fanlararo munosabatlar** va **funksional aniqlik zaruriyati** turadi. Shu bois ularni chuqur va izchil o'rganish, o'zbek terminologiyasining taraqqiy etishi yo'lida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, terminologiyada omonimlik va polisemiya hodisalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi bilan birga, ularni aniq farqlash ilmiy izchilik, uslubiy aniqlik va kommunikativ samaradorlikni ta'minlaydi. Omonim terminlar va polisemik terminlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali terminologik tizimni takomillashtirish, izohli lug'atlar sifatini oshirish va tarjimada yagona yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronboyeva M. O'zbek tili leksikasi: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: TDPU, 2020. – B. 81–82
2. Qodirov N. Til va tafakkur: O'zbek tilining semantik jihatlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – B. 72–75
3. Nazarov A. O'zbek tilida omonim so'zlarning semantik va funksional xususiyatlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – B. 102
4. Nazarov Z. Tilshunoslik terminlari va ularning turlari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2023. – B. 56–59
5. Normatov H. Ijtimoiy fanlarda terminologik tafovutlar. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – B. 88–91
6. Karimov D. Soha terminologiyasi va zamonaviy lingvistik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 115–117
7. Komil o'g, M. R. S., & Eshmurza o'g'li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 620-623.
8. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(4), 172-181.
9. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(4), 172-181.
10. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA'RUF OV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE

DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 160-165.

11. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUZ*, 1(1.2), 1.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASASI O‘QUVCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA GIMNASTIKA MASHQLARINING ROLI VA SAMARADORLIGI

Yangiboyeva Muqaddam Asatulla qizi

Toshkent shahar, Sergeli tumani, 353-sonli maktabning

Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Email: muqaddamxon093@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishida gimnastika mashqlarining o‘rni, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati hamda mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье освещается роль гимнастических упражнений в физическом развитии учащихся общеобразовательных учреждений, их значение в формировании здорового образа жизни, а также пути повышения эффективности занятий.

Abstract: This article highlights the role of gymnastics exercises in the physical development of students in general secondary education institutions, their significance in the formation of a healthy lifestyle, and ways to increase the effectiveness of classes.

Kalit so‘zlar: gimnastika, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, rivojlanish, mashq, o‘quvchi, faoliyat.

Ключевые слова: гимнастика, физическое воспитание, оздоровление, развитие, упражнение, ученик, деятельность.

Keywords: gymnastics, physical education, health improvement, development, exercise, student, activity.

KIRISH.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki sog‘lom, jismonan chiniqqan, ruhiy jihatdan barqaror yosh avlod — jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari, ayniqsa gimnastika mashqlari o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Gimnastika nafaqat sog‘lomlashtiruvchi vosita, balki estetik, tarbiyaviy va ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism.

Gimnastikaning jismoniy rivojlanishdagi o‘rni.

Gimnastika — bu inson organizmini chiniqtiruvchi, mushaklar faoliyatini kuchaytiruvchi, harakat koordinatsiyasini yaxshilovchi mashqlar majmuasidir. U

o'quvchilarning suyak-mushak tizimini mustahkamlaydi, yurak va o'pka faoliyatini yaxshilaydi, nerv tizimining muvozanatini ta'minlaydi.

Muntazam gimnastika mashqlari o'quvchilarda quyidagi jismoniy sifatlarni shakllantiradi:

- ❖ kuch — mushaklarning rivojlanishi va chidamliligi oshadi;
- ❖ epchillik — harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati ortadi;
- ❖ tezlik — harakatni tez bajarish malakasi rivojlanadi;
- ❖ moslashuvchanlik — bo'g'imlar faoliyati kengayadi, gavda tuzilishi to'g'rilanadi.

Shuningdek, gimnastika mashqlari o'quvchilarning diqqatini jamlash, iroda kuchini oshirish, o'zini boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Gimnastika mashqlarining turlari va ularning ahamiyati.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida gimnastika mashqlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Ertalabki badantarbiya – kunni faol ruhda boshlash, organizmni uyg'otish uchun xizmat qiladi.
2. Fizkultminutkalar – dars jarayonida charchoqni bartaraf etadi, o'quvchining diqqatini qayta tiklaydi.
3. Sport gimnastikasi – kuch, epchillik va muvozanatni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.
4. Sog'lomlashtiruvchi gimnastika – har bir o'quvchining yoshiga va sog'lig'iga mos, yengil harakatlardan iborat bo'lib, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladi.

Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatini yaxshilaydi, ularning umumiy faoliyatini faollashtiradi hamda sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Gimnastika mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish omillari.

Gimnastika mashqlarining natijadorligini oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga e'tibor qaratish zarur: Mashqlar o'quvchilarning yoshiga, jinsiga va tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi kerak; Mashg'ulotlar muntazam, tizimli va bosqichma-bosqich o'tkazilishi zarur; O'qituvchi tomonidan to'g'ri metodik rahbarlik va nazorat amalga oshirilishi lozim; Innovatsion yondashuvlardan (musobaqa elementlari, interfaol o'yinlar, multimedia vositalari) foydalanish samaradorlikni oshiradi; O'quvchilarning mustaqil mashg'ulotga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish muhimdir.

Gimnastika mashqlari o'quvchilarning jismoniy, ruhiy va irodaviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uning samaradorligi, avvalo, mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi va muntazam bajarilishida namoyon bo'ladi. Gimnastika mashqlari orqali o'quvchilarning gavda tuzilishi to'g'rilanadi, mushaklari chiniqadi, nafas olish va

yurak faoliyati yaxshilanadi. Shu bilan birga, mashqlar diqqatni jamlash, tez fikrlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

Gimnastika bilan shug'ullanish o'quvchilarda intizom, sabr-toqat, o'ziga ishonch va irodani kuchaytiradi. Harakatlar jamoaviy tarzda bajarilganda esa o'quvchilar o'zaro yordam, hurmat va hamkorlikni o'rganadilar. Shuningdek, gimnastika sog'lom turmush tarzini shakllantirish, to'g'ri holatda yurish, chiroyli qomat va estetik harakat madaniyatini rivojlantiradi.

Umuman olganda, gimnastika mashqlari o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlaydi, uning o'qishdagi faolligini oshiradi hamda jismonan barkamol, faol va sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ushbu omillarni hisobga olish natijasida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi barqaror, sog'lom turmush tarzi esa doimiy ehtiyojga aylanadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, gimnastika mashqlari umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilari jismoniy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. U nafaqat sog'lomlashtiruvchi, balki tarbiyaviy, estetik va psixologik jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muntazam va to'g'ri tashkil etilgan gimnastika mashg'ulotlari: o'quvchilarning sog'lom, faol va intizomli bo'lishiga; dars jarayonida yuqori natijalar ko'rsatishiga; kelajakda sog'lom turmush tarziga rioya etuvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun har bir ta'lim muassasasida gimnastika mashqlariga e'tibor kuchaytirish, o'qituvchilarni zamonaviy metodikalar bilan ta'minlash va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom avlod – millat kelajagi" konsepsiyasi.
3. Abduqodirov A. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi." – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Karimova N., Xudoyqulova M. "Bolalar jismoniy rivojlanishida gimnastika mashqlarining ahamiyati." – Ilmiy axborotlar jurnali, 2022.
5. X. Xolmatov, S. Rahimov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
6. H Majidova, X Yangiboyev. "STEAM TA'LIMIY DASTURI BO'YICHA O'QUVCHILARNI INNOVATION MUHITGA YO'NALTIRISH" Физико-технологического образование, 2021.
7. www.lex.uz – normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlar bazasi.
8. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

THE ROLE AND STRATEGIC SIGNIFICANCE OF HUMAN CAPITAL IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Shoyunusova Arofat

English Language Teacher, Wise School

Abstract: This article examines the importance of human capital in the economic development of Uzbekistan and the necessity of modernizing the higher education system. In the context of globalization, the rise of the digital economy, and increasing competition in the international labor market, investments directed toward the educational sector are interpreted as one of the key strategic priorities of the state. The article substantiates the invaluable role of human capital in developing a highly qualified workforce, strengthening scientific potential, and facilitating the transition to an innovation-driven economy. Additionally, the paper highlights the role of education in Uzbekistan's socio-economic development strategies, existing challenges, and solutions for their effective elimination.

Keywords: Human capital, higher education, economic growth, innovative development, educational investment, workforce training, competitiveness, modernization, knowledge economy.

Effective modernization of the national economy, ensuring its competitiveness in the global market, and strengthening socio-economic stability are among the foremost strategic tasks of the present time. In this process, the formation and efficient management of the country's internal potential holds particular importance. From this perspective, the study and development of human resources have become urgent issues. Today, human capital is recognized as the most crucial economic factor — superior to natural resources or material assets. The competitiveness of a state and the pace of economic development are determined by the qualitative and quantitative indicators of its human capital. International experience demonstrates that, within the global wealth structure, physical capital accounts for 16%, natural capital for 20%, while human capital constitutes 64% of total wealth .

In the context of a knowledge-based economy, the education and cultural systems play a decisive role in the formation of human capital. According to the well-known economist G. S. Becker, any investment directed toward education generates economic returns in the future; therefore, investors (students and parents) consider such expenses in comparison with other investment opportunities . Similarly, A. Daly equates expenditures aimed at developing skills and competencies with investments in physical capital .

Today, humanity is facing a number of complex global threats such as energy shortages, food insecurity, environmental crises, radioactive contamination, and biological risks. It is natural that the education system plays a leading role in addressing these global challenges, which further enhances its strategic importance. Numerous scientific studies confirm that the most essential directions of investment in human capital are the sectors of education and healthcare. According to the World Bank, the structure of national wealth in the United States consists of 19% physical productive assets, 5% natural resources, and 76% human capital. In Western Europe, these figures account for 23% and 74% respectively, while in Russia they are 10.4% and 50%. These indicators clearly demonstrate that human capital is the most valuable resource in a post-industrial society. Investments in education are now viewed not as expenditures but as high-yield investments, since intellectual (human) capital represents the key factor driving economic development dynamics, labor productivity, and the pace of scientific-technological progress.

The economic value of higher education in human life is explicitly manifested in employment levels and income indicators. Experience from OECD countries demonstrates that as the level of education increases, success in the labor market and earnings rise significantly. Therefore, establishing a strong foundation for the development of human capital requires ensuring a high level of education and cultural advancement among the majority of the population.

Enhancing the competitiveness of Uzbekistan's economy, maintaining stable growth rates, and ensuring socio-economic security in the era of globalization make the development of human capital a strategically crucial issue. Within the framework of modern economic paradigms, investments directed toward individuals — education, healthcare, scientific innovation, and cultural progress — are regarded as the nation's greatest asset and its primary driver of development. Human capital determines the technological, economic, and social advancement level of a state.

International experience demonstrates that the success of economic development relies not on natural resources or physical capital, but on highly skilled, knowledgeable, and intellectually capable human resources. For instance, in the United States, Japan, and European countries, human capital accounts for 65–75% of national wealth. Statistical data confirm that investments in education significantly contribute to economic growth in these countries.

Japan's case is particularly noteworthy: despite its historically limited natural resources, the country has become one of the world's leading industrial powers by improving its population's educational level and professional skills. This example affirms that investments in human capital generate the highest level of effectiveness.

Today, Uzbekistan has also identified human capital as a priority in the process of modernizing its national economy in line with global trends. The “New Uzbekistan” Development Strategy emphasizes educational reforms, advancement of science and innovation, and modernization of the healthcare system as fundamental drivers of national economic growth. The increasing demand for skilled labor based on labor market requirements, alongside the rising potential and competencies of youth, contributes to the accelerated development of high-tech sectors.

The economic effectiveness of human capital is linked not only to labor productivity, but also to innovative activity, creativity, digital literacy, and the formation of a knowledge-based economy. In this context, establishing a lifelong learning system and strengthening the integration between research institutions and higher education are among the key factors of economic progress in Uzbekistan.

However, although democratization, differentiation, and diversification in the education system are important for human capital development, they do not fully guarantee social mobility. Despite state efforts to mitigate negative outcomes in this process, expected results are not always achieved. For example, since the 1980s, France has introduced Zones d'Éducation Prioritaires (ZEPs) in socioeconomically disadvantaged migrant-populated areas. These zones receive additional targeted funding to combat social inequality through “pedagogical differentiation,” thus creating what can be considered a “two-speed education system”.

Similarly, in the Netherlands, 70 priority education zones have been implemented since 1986 as part of state educational policy. In the United Kingdom, the 1991 National Education Modernization Plan introduced a new governance approach, reducing full state control. Since 1998, Education Action Zones have been established locally to improve educational standards in underperforming areas by strengthening school–parent partnerships. However, the effectiveness of these programs has been limited in both France (state-funded) and the UK (with private-sector involvement).

South Korea leads the world in the proportion of population aged 25–64 with higher education, exceeding 60%. Switzerland and Sweden—top performers in the Global Innovation Index and the Knowledge Economy Index—demonstrate slightly above 40% for this indicator.

In Belgium, individuals with higher education earn, on average, 30 percent more than those with secondary education, while in Hungary this difference reaches 117 percent. For women aged 25–64, the economic benefits of higher education are even greater compared to men in the United Kingdom, Ireland, Spain, and the Netherlands. Income disparities persist even when educational attainment is the same, which is largely explained by differences in occupational choice, working hours, and forms of employment.

The modernization of the Russian economy is likewise impossible without investments in human capital. Currently, Russia ranks 55th in the world in terms of human capital development, which is largely due to the inefficiency of its education and healthcare systems and to the inadequate utilization of human potential. Although the proportion of individuals with higher education in Russia is quite high, the economy still suffers from a shortage of specialists that meet real sector demands. In recent years, nearly half of university students have chosen programs in the humanities and economics, while engineering and technical fields account for no more than 11 percent .

In contrast, countries such as China, South Korea, Germany, and Finland prioritize training in technical and natural sciences. The rapid expansion of higher education in Russia occurred as a result of the strong social demand that emerged during the economic crisis of the 1990s: drastic declines in economic growth, rising unemployment, and uncertainty in the labor market stimulated a growing desire for higher qualifications.

Changes within the education system mostly occurred spontaneously, without well-designed state planning. Between 1990 and 2011, the number of higher education institutions increased from 514 to 1,115, while student enrollment grew from 2.8 million to over 7 million. At the same time, demographic challenges continue to negatively affect the development of human capital, as the number of school graduates is steadily decreasing. In the current environment, the globalization of the education market and intensifying competition create significant economic opportunities for countries capable of exporting high-quality educational services. In modern society, individuals increasingly require new knowledge for continuous development—knowledge has become the fundamental medium in which society exists and evolves.

References

World Bank. Human Capital Country Brief – Uzbekistan. (2023).

A detailed country-report giving data on Uzbekistan’s human capital index, health, education and labour productivity.

Nurova, F., Disman, & Goyibnazarov, S. (2024). “Human Capital Development and Economic Growth in Uzbekistan.” *International Journal of Management Science and Business*, 6(1), 19-28.

Saidov, S. Sh. & Bozorboyev, E. (2024, October). “Human Capital Development Policy in Uzbekistan.” *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 29, 61-71.

americanjournal.org

Kuziyeva, G. R. (2023). "Education Policy and Human Capital Development: Evaluating the Effectiveness of Different Education Policies in Uzbekistan." *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 1(3), 30-36.

Shoira, A. (2023). "Factors Affecting the Formation and Development of Human Capital." *The Peerian Journal*, 23(October), 53-...

peerianjournal.com

Babadjanova, M. (2023). "Analysis of the Importance of Digitalization and Education in Human Capital Development in Uzbekistan." [Conference Article]

ACM Digital Library

SILPHIUM PERFOLIATUM L. NING AGROEKOTIZIMLARDA BIOMASSA ISHLAB CHIQRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKDAGI AHAMIYATI

Naralievna Nasiba Mamanovna

Andijon davlat universiteti Ekologiya va botanika kafedrasini mudiri, biologiya fanlari doktori (DSc), professor n_naralievna@mail.ru, <https://orcid.org/0000-0002-6720-2083>

Eshmurodova Mavluda Qodiralievna

O'zbekiston Respublikasi G'alla va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti. eshmurodovamavluda52@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0006-5441-6791>

Kimsanov Sherzodbek Botirjon o'g'li.

kimsanovsherzodbek797@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada *Silphium perfoliatum* L. o'simligining agroekotizimlarda biomassa ishlab chiqarish, bioyoqilg'i manbai sifatida foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli o'rganilgan. Tadqiqotlar ushbu o'simlikning yuqori hosildor biomassa manbai, kam parvarish talab qilishi, uzoq umr ko'rish xususiyati va ekologik moslashuvchanligi tufayli agroekosistemalarda istiqbolli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada bu o'simlikning biogaz ishlab chiqarishdagi samaradorligi, tuproq unumdorligini saqlashdagi ahamiyati va biologik xilma-xillikka ijobiy ta'siri haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *Silphium perfoliatum* L., biomassa, bioyoqilg'i, agroekotizim, ekologik barqarorlik, biogaz, biotexnologiya.

СИЛЬФИУМ PERFOLIATUM L. ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРОИЗВОДСТВЕ БИОМАССЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АГРОЭКОСИСТЕМ

Наралиева Насиба Мамановна - заведующий кафедры Экология и ботаники Андijanского госуниверситета, доктор биологических наук (DSc), профессор (Узбекистан). n_naralievna@mail.ru, <https://orcid.org/0000-0002-6720-2083>

Эшмуродова Мавлуда Қодиралиевна - докторант Научно-исследовательский институт зерно и зернобобовых культур Республики Узбекистана. eshmurodovamavluda52@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0006-5441-6791>

Кимсанов Шерзодбек. kimsanovsherzodbek797@gmail.com

АННОТАЦИЯ.

В данной статье рассматривается роль растения *Silphium perfoliatum L.* в производстве биомассы, использовании в качестве источника биотоплива и обеспечении экологической устойчивости агроэкосистем. Исследования показывают, что данный вид является перспективной энергетической культурой благодаря высокой урожайности биомассы, низким требованиям к уходу, долголетию и экологической адаптивности. Также приведены данные о его эффективности в производстве биогаза, сохранении плодородия почв и положительном влиянии на биологическое разнообразие.

Ключевые слова: *Silphium perfoliatum L.*, биомасса, биотопливо, агроэкосистема, экологическая устойчивость, биогаз, биотехнология.

THE IMPORTANCE OF *SILPHIUM PERFOLIATUM L.* BIOMASS

PRODUCTION AND ECOLOGICAL STABILITY OF AGROECOSYSTEMS

Naraliev Nasiba Mamanovna - Head of the Department of Ecology and Botany of Andijan State University, Doctor of Biological Sciences (DSc), Professor (Uzbekistan). n_naraliev@mail.ru, <https://orcid.org/0000-0002-6720-2083>

Eshmurodova Mavluda Kodiraliyeva - doctoral student of the Research Institute of Grain and Leguminous Crops of the Republic of Uzbekistan. eshmurodovamavluda52@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0006-5441-6791>

Kimsanov Sherzodbek . kimsanovsherzodbek797@gmail.com

ABSTRACT.

This article explores the role of *Silphium perfoliatum L.* in biomass production, its use as a biofuel source, and its importance in maintaining the ecological stability of agroecosystems. Research indicates that this species is a promising energy crop due to its high biomass yield, low maintenance requirements, long lifespan, and ecological adaptability. The paper also discusses its potential for biogas production, soil fertility preservation, and contribution to biodiversity.

Keywords: *Silphium perfoliatum L.*, biomass, biofuel, agroecosystem, ecological stability, biogas, biotechnology.

KIRISH

Agroekotizimlarda biologik xilma-xillikning biomassa ishlab chiqarishga ta'siri tobora ortib borayotgan e'tibor bilan qayd etilmoqda. Hukumatlar, fermerlar va biogaz qurilmalari operatorlari orasida muqobil energiya ishlab chiqaruvchi o'simliklarga qiziqish oshib bormoqda. Shu ekinlar qatorida *Silphium perfoliatum L.* o'zining yuqori biomassa hosildorligi, kam parvarish talab qilishi va ekologik qiymati bilan ajralib turadi. Bu ko'p yillik, baland bo'yli, sarg'ish gullar bilan qoplangan o'simlik taxminan

15 yil davomida hosil bera oladi va Shimoliy Amerikadagi tabiiy hududidan tashqari, mo'tadil iqlim sharoitiga ega hududlarda ham muvaffaqiyatli o'stirilishi mumkin.

S. perfoliatum L. ning ekilishi ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklarni o'zida mujassamlashtiradi. Urug'lik sifati pastligi sababli to'g'ridan-to'g'ri urug' ekish ko'pincha muvaffaqiyatsiz bo'ladi; buning o'rniga ko'chatlardan ekish samaraliroq hisoblanadi. Ekinning birinchi yilida begona o'tlarga qarshi kurash muhim bo'lsa-da, keyingi yillarda ko'p parvarish talab etilmaydi. Gullash mavsumining oxirida yig'ib olingan o'simlik quruq moddasi eng yaxshi hosilni beradi va silos tayyorlash uchun mos keladi. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, yillik quruq modda hosili taxminan 15 t/ga ni tashkil etadi.

Silphium perfoliatum L. yuqori biomassa hosildorligi va parvarish talabining pastligi tufayli biogaz ishlab chiqarishda juda istiqbolli ekin hisoblanadi. Yillik ekinlarga nisbatan ekologik afzalliklari ham muhim: u tuproqni eroziyadan himoya qiladi, begona o'tlar va zararkunandalarga chidamli, hamda biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi.

Yevropada, xususan Germaniyada, qishloq xo'jaligi biogaz qurilmalarida ishlatiladigan asosiy substratlar — makkajo'xori, boshoqli donli o'simliklar va o't siloslari. Shu bilan birga, yuqori hosil beruvchi yillik ekinlar yer almashuvi, biologik xilma-xillik va hayvon populyatsiyalariga ta'sir qiladi, tuproq eroziyasi xavfini oshiradi, suv yo'llarining evtrofiklanishiga olib keladi (Fletcher va boshq., 2010; Boardman va boshq., 2009).

Silphium perfoliatum L. bu muammolarni kamaytirishga yordam beradi. U uzoq muddat bir joyda ekilishi mumkin bo'lgan ko'p yillik o'simlik bo'lganligi uchun, almashlab ekishning qisqarishi, tuproqning qoplanishi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Biogaz ishlab chiqarishda yuqori metan hosilini beradi va boshqa energiya ekinlariga qaraganda ekologik jihatdan xavfsiz hisoblanadi.



***Silphium perfoliatum* L. ning fenologik kuzatuvlar olib boorish jarayoni**

Bugungi kunda *Silphium perfoliatum* L. bo'yicha mavjud tadqiqotlar asosan uning biomassa ishlab chiqarish qobiliyati va biogaz substrati sifatidagi dolzarbligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekinning yillik quruq modda hosili taxminan 15 t/ga atrofida bo'lib, biometan potentsiali 0,26 m³/kg quruq moddani tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich, masalan, makkajo'xori silosiga nisbatan taxminan 20% past, ammo past parvarish talabi va ekologik barqarorligi bilan muqobil ekanligini ko'rsatadi (Biertümpfel va boshq., 2013).

Silphium perfoliatum L. ning yuqoridagi hususiyatlarini hisobga olgan holda biz oz tadqiqotimizni bu o'simlikni mamlakatimiz tuproqlariga introduksiya qilish, bioekologiyasini o'rganish, begona o'tlar va zararkunandalarga chidamliligini o'rganish, urug'lik texnologiyasini rivojlantirishni maqsad qilib oldik.

Hozirgi kunda *Silphium perfoliatum* L. bo'yicha quyidagi tadqiqotlarni amalga oshirmoqdamiz. Silfiyaning urug'lik sifatining pastligi sababli, ko'chatlardan ekish amaliyoti muvaffaqiyatli bo'lmoqda. Kelajakda urug'ni to'g'ri tayyorlash va ekish texnologiyasini ishlab chiqishni rejalashtirdik. Silfiya ko'p yillik ekin sifatida begona o'tlar bilan raqobatbardosh, ammo birinchi yilda begona o'tlarni nazorat qilish uchun samarali usullarni ishlab chiqamiz. Biomassa sifatini va hosilini optimallashtirish uchun *Silphium*ni boshqa organik substratlar bilan birgalikda ishlatish bo'yicha tajribalar o'tkazmoqchimiz.



Silphium perfoliatum L.ning pivojlanish bosqichlari

Silphium perfoliatum L. ko'p yillik o'simlik bo'lib maydonlarida biologik xilma-xillik, tuproq sifatini va suv resurslariga ta'sirni kuzatish zarur, bu esa *Silphium*ning ekologik afzalliklarini yanada aniqlashga yordam beradi.

Umuman olganda, *Silphium perfoliatum L.* ekologik jihatdan barqaror, yuqori biomassa hosildorligi va biogaz ishlab chiqarish uchun muqobil ekin sifatida katta istiqbolga ega. Tadqiqotlar davom ettirilsa, u ko'plab mamlakatlarda agroekosistemalarda ko'p yillik o'simlik samarali sifatida keng qo'llanishi mumkin.

Silphium perfoliatum L. ekini uzoq muddatli ekish uchun qulay, begona o'tlar va zararkunandalarga nisbatan nisbatan chidamli, shuningdek, tuproq va suv resurslariga zarar keltirmaydi. Shu sababli, u ekologik jihatdan barqaror va muqobil energiya manbai sifatida katta istiqbolga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amon, B., Gebrezgab, T., & Geršl, R. (2010). *Use of energy crops in agricultural biogas plants in Europe*. Renewable Energy Journal, 35(4), 845–853.
2. Aurbacher, J., et al. (2012). *Biogas production from different energy crops: A review of yields and methane potentials*. Biomass and Bioenergy, 45, 71–85.
3. Biertümpfel, A., Grebe, H., et al. (2013). *Silphium perfoliatum L. as a promising energy crop in Europe*. Renewable Agriculture and Food Systems, 28(2), 115–124.
4. Boardman, J., et al. (2009). *Soil erosion impacts of intensive maize cultivation in Europe*. Soil & Tillage Research, 103(1), 120–127.
5. EEG (2014). *Renewable Energy Act – Germany*. Federal Ministry for Economic Affairs and Energy.
6. EurObserv'ER (2012). *Biogas Barometer*. Observ'ER, Paris.
7. FNR (2014). *Energy Crop Statistics for German Biogas Plants*. Fachagentur Nachwachsende Rohstoffe e.V., Germany.
8. Fletcher, R. J., et al. (2010). *Effects of intensive agriculture on biodiversity in Europe*. Agriculture, Ecosystems & Environment, 138(3), 193–204.

9. Geršl, R., et al. (2014). *Biogas potential of maize and other energy crops*. Journal of Renewable Energy, 67, 52–60.

SILPHIUM PERFOLIATUM L. NING AGROEKOTIZIMLARDA BIOMASSA ISHLAB CHIQRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKDAGI AHAMIYATI

Naralievna Nasiba Mamanovna - Andijon davlat universiteti Ekologiya va botanika kafedrasini mudiri, biologiya fanlari doktori (DSc), professor [n_aralievna@mail.ru](mailto:naralievna@mail.ru),
<https://orcid.org/0000-0002-6720-2083>

Eshmurodova Mavluda Qodiralievna – O‘zbekiston Respublikasi G‘alla va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti.

eshmurodovamavluda52@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0006-5441-6791>

Kimsanov Sherzodbek Botirjon o‘g‘li. kimsanovsherzodbek797@gmail.com

ANNOTATSIYA.

